

**Mustakillik yillarida O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining
shakllanish bosqichlari va uni rivojlantirish istiqbollari**

MUNDARIJA		Betlar
KIRISH		3
I BOB.	OBOD TURMUSH YILIDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING ZARURIYATI VA PENSIYA TA'MINOTINING AHAMIYATI	11
1.1.	Ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati va iqtisodiy-ijtimoiy mazmuni	11
1.2.	Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-nazariy asoslari	16
1.2.	O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari	23
I bob bo'yicha xulosa		27
II BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA'MINOTINI MOLIYALASHTIRISHNI HOZIRGI KUNDAGI AHMIYATI	30
2.1.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining tahlili	30
2.2.	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti jarayonlarining tahlili	45
2.3.	O'zbekistonda fuqarolarning pensiya ta'minotida axborot texnologiyalari qo'llanilishining holati	53
II bob bo'yicha xulosa		59
III BOB.	IQTISODIYOTNI MODERENEZATSIYALASH SHAROITIDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	61
3.1.	Pensiya tizimini moliyalashtirishning xorijiy tajribalardan O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari	61
3.2.	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini rivojlantirish yo'llari	70
III bob bo'yicha xulosa		74
XULOSA		78
ADABIYOTLAR RO'YXATI		81

KIRISH

Tadqiqot mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Pensiya tizimi – bu ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning bir ko'rnishidir. Pensiya ta'minoti to'g'risidagi g'oya kishilarning doimiy muammolariga, fuqarolarni mehnat faoliyatidagi daromadlarini keyin qanday taqsimlash mumkin, degan savollariga javob ko'rinishida paydo bo'ldi. Shuning uchun pensiya tizimini takomillashtirish markazida fuqarolarning mehnat qilgan vaqtidagi daromadlarini ular mehnat qobiliyatini yo'qotgan paytga o'tkazish vazifasini bajaruvchi mehnat pensiyalari turadi. Pensiya – bu fuqarolarning pensiya yoshiga yetganda oladigan daromadlarining bir ko'rinishi bo'lib, mehnat bozorida ketgan paytdagi to'lanadigan ijtimoiy kompensasiyadir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiyaning ijtimoiy funksiyasi kamaymaydi, pensiya miqdori yuqori ish haqi olmagan fuqarolarga yashash sharoitini ta'minlab berishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov respublikamizda ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash vazifalarini bajarishning ahamiyati to'g'risida to'xtaldilar. O'tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2011 yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, byudjet tashkilotlari xodim-larining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash va aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va yangi ish o'rinlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratiladi. “Lo'nda qilib aytganda, yilga nom berish negizida, avvalobor, har bir odam, har bir oila, qolaversa, butun xalqimizning hayolidn o'rin olgan vazifalarni amalga oshirish, taraqqiyotimizni jadallashtirish, hayotimizni yanada

farovon qilish – ayni shu kabi ezku maqsad-muddaolar turishi lozim”¹

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga tayinlanadigan pensiya miqdorining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan majburiy badallar miqdori bilan bevosita bog'lanmaganligi, pensiyalarni tayinlashda pensiya jamg'armasining daromadlar qismida fuqarolar qatnashuvining jinsiy belgilar bo'yicha farqlarning mavjudligi, xorij davlatlarda ishlagan fuqarolar uchun majburiy sug'urta badallari to'lash tartibini belgilanmaganligi, imtiyozli pensiyalarni moliyalashtirishdagi dolzarb muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan tadqiqot ishimizga «Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari va uni rivojlantirish istiqbollari» mavzusi tanlandi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotini o'rganish tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi. Pensiya ta'minoti tizimini boshqarish masalalari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi– O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflarni taqdim etishdan iborat. Muallif qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishga intilgan:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mazmuni va nazariy asoslarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining nazariy-tashkiliy asoslarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya fondi faoliyatini tahlil qilish;

1 Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir." Xalq so'zi. 2012 yil. 8 dekabr.

- O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlarini o'rganish;
- xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotini moliyalashtirishni o'rganish va O'zbekiston Respublikasida xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatish;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar hamda amaliy tavsiyalar kelgusida mamlakatimizda pensiya tizimini takomillashtirishga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy masalalari:

- ✓ Aholini ijtimoiy himoyalash va amjburiy sug'urta tizimida davlatning faol ishtiroki va nazorati ilg'or xorijiy tajribalar asosida yoritilgan;
- ✓ Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilashsharoitida Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini modernizatsiyalashga qaratilgan ijtimoiy takliflar ishlab chiqilgan;
- ✓ O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya tizimiga qo'shimcha ravishda boshqa turlarini joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy sug'urta, fuqarolarning daromadlarini oshirish, pensiya ta'minotini yaxshilash bilan aholi farovonligini oshirishning asosiy yo'llari aniqlangan. O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosat yo'nalishlari, ijtimoiy himoya xarajatlari, pensiya tizimi, ijtimoiy ta'minot muammolarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning mualliflari qatorida Q.Abduraxmonov, M. Abdullaev, G.Alimova, A.Bekmurodov, U.Burxonov, N.Beknozov, A.Vaxabov, A.Vahobov, D. Vahobov, Z.Karimova, T.Malikov, M. Mirzamahmudov, N.Haydarov, U.G'ofurov, A.O'lmasov, G.Qosimova, A.Hayitov kabilarni ko'rsatish mumkin².

²Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. "Mehnat". 2004.-535b., Abduraxmonov Q. Modernizatsiya jarayonida aholi daromadlarini oshirish. \ Jamiyat va boshqaruv. 2005. 3-son. 66-71 b., Abdullaev M. Zamonaviy

Aholini ijtimoiy himoyalashda davlat maqsadli byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyati, pensiya ta'minotining tashkiliy masalalari, pensiya tizimini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar I.Akperov, L.Androsova, S.Golubeva, S. Kadomseva, E. Smirnova, A.Neshitoy, L.Okuneva, V.Polyak³ va boshqalarning darslik, monografiya, o'quv qo'llanma, ilmiy maqola va boshqa ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Tanlangan mavzuga bevosita aloqador masalada tadqiqot ishlari olib borgan mualliflarning ishlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Mirzaev Shakir Aripovning "O'tish iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy himoyalash manzilliligini kuchaytirish yo'llari" mavzusi bo'yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan desertasiyasining maqsadi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash holatini kompleks tahlil etish va aholini ijtimoiy himoyalash manzilligi mexanizmini kuchaytirish borasida uslubiy va amaliy tavsiyalar

pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. 8-12b., Alimova G. Ijtimoiy sug'urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6.10-12b., Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberillashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2007. 120 b., Beknozov N.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «TDIU». 2006.-552 b., Vaxabov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. T.: Sharq. 2003. -320 b., Vaxabov D.R. Ijtimoiy sug'urtaning fundamental asoslari, nazariyalari va ijtimoiy risklar xususida ba'zi mulohazalar // Iqtisodiyot va ta'lim.– Toshkent. 2010.- № 6.. 16-18b., Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4. 21-27b., Malikov T.S., Xaydarov X.N. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2007.-245 b., Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. -556 b.; Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. 660 b., Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b., Qosimova G.A. Ijtimoiy - madaniy sohalarini rivojlantirishda byudjet siyosati. Monografiya. – T.: "Moliya". 2004. -152 b., Косимова Г. А. Реформа пенсионных систем: Цели и перспективы. // Российский страховой бюллетень. Москва. 2000. август. 44-45с Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009. 212 b., Xayitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b., O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Sharq». 2006. -480 b.

³ Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: "КНОРУС". 2010. - 640 с., Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. –М.: Российский университет дружбы народов. 2008. -27 б., Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: "Вузовский учебник". 2011. -224 с., Кадомцева С. Социальная политика и население. // Экономист. 2006. №7. 56-58 с., Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с., Поляк Г.Б. Финансы. Учебник. -М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2008. -639с., Поляк Г.Б. Государственные и муниципальные финансы. Учебное пособие.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2008. -375 с., Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2011. -703 с., Нещитой А.С. Финансы. Учебник. Москва. Дашков и К. 2008. -512 стр., Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с.

ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ishining predmeti – aholini kam ta'minlangan qatlamlarini manzilli ijtimoiy himoyalashning kuchaytirishga bog'liq iqtisodiy munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot ishining ob'ekti qilib, O'zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi belgilangan.

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan:

⇒ ijtimoiy siyosatning tarkibiy elementlari va uning fuqarolar bandligiga yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy sug'urta tizimi, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish mexanizmi, ijtimoiy ta'minot va pensiya ta'minotining ahamiyati ko'rsatilgan;

⇒ “pensiya ta'minoti”, “ijtimoiy siyosat” “ijtimoiy yordam” “ijtimoiy xatar”, “aholini manzilli himoyalash” kategoriyalariga keng, to'liq, aniq, mustaqil muallif ta'riflari berilgan;

⇒ rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalashni rivojlantirish modellari o'rganilgan va O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, bu tajribalaradn foydalanish imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

⇒ Respublikada aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kasimova Gulyora Axmatovnaning “Ijtimoiy - madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati yo'llari” mavzusi bo'yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan desertatsiyasining maqsadi – bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-madaniy tadbirlar va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish yuzasidan uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. O'zbekistonda iqtisodiyotining erkinlashuvi sharoitida ijtimoiy-madaniy soha va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirishda byudjet siyosatining roli, xususiyatlari va dolzarb muammolari yoritilgan. Bozor munosabatlari sharoitida davlat byudjetining ijtimoiy himoya funksiyasi ustuvorligi davlatning investisiya faoliyati nuqtai nazaridan tadqiq qilindi.

Bizning respublikamizda ijtimoiy siyosatning muhim ahamiyatga ega ekanligi faqatgina iqtisodiy va siyosiy vaziyatlargagina bog'liq emas, balki, xalqning ma'naviy qadriyatlariga asoslangan sog'lom avlodni tarbiyalash, ko'p bolali o'zbek oilasiga madad berish, qariyalarga g'amxo'rlik qilishdan iborat ekanligi ko'ratilgan. Aholining kam ta'minlangan va kam himoyalangan qismi - bolalarga, ayollarga, qariyalarga, nogironlarga ijtimoiy yordam berish va ularning turmush sharoitini yaxshilash hamda bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirishga yordam berish kerakligiga e'tibor qaratilgan.

Respublikamizdagi demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish kerakligi, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va pensiya ta'minoti tadbirlarini bajarish orqali amalga oshirilishiga urg'u berilgan. Aholi yoshining tarkibiy tuzilishi ijtimoiy masalalari, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasini isloh etishning ustivor yo'nalishlar ekanligi ko'rsatilgan. Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ijtimoiy-madaniy sohalarni yanada rivojlantirishning zarurligi, ijtimoiy soha va aholini manzilli himoyalashni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muammolarini ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Golubeva Svetlana Vasil'evnaning "Demografik qarish sharoitida xorijiy mamlakatlar va Rossiyaning pensiya tizimini rivojlantirish" mavzusi bo'yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertasiyasining maqsadi – demografik o'zgarishlarning prognozlariga muvofiq, xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, Rossiya pensiya tizimining rivojlantirish xususiyatlarini ko'rsatish, shuningdek pensiya tizimining samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqot predmeti – aholini qarishi sharoitida Rossiya va xorijiy mamlakatlarni pensiya tizimining transformasiyalash xususiyatlari tashkil etgan. Tadqiqot ishining ob'ekti qilib xorijiy mamlakatlar va Rossiyaning pensiya tizimi olingan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari, yetuk iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini himoyalash vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari ilmiy izlanishning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot ishida taqqoslash, guruhlash, tahlil, monografik kuzatish uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Respublikamizda pensiya ta'minotini rivojlantirish ishlarida tadqiqot ishining xulosa, taklif va tavsiyalardan foydalanish mumkin. G'aznachilik tizimida Byudjetdan tashqari Pensiya fondining daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish chora-tadbirlari takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Davlat maqsadli fondlarini boshqarish», «Pensiya ta'minoti xavfsizligi va nazorati» va «Xorijiy davlatlarda pensiya tizimi» fanlarining namunaviy va ishchi o'quv dasturlarini tuzish va talabalarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- ✓ aholini ijtimoiy himoyalash, majburiy ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotining mohiyati ilmiy asoslandi;
- ✓ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat yoritildi;
- ✓ pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning ilg'or xorijiy tajribalari qiyosiy o'rganildi;
- ✓ Pensiya jamg'armasini modernizatsiyalash va pensiya ta'minoti institutining strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi;
- ✓ pensiya ta'minoti tizimining uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishining hajmi 90 betdan iborat, tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishining kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi berilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqot ishining obyekti va predmeti, tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishining «Obod turmush yilida ijtimoiy himoya tizimining zaruriyati va pensiya ta'minotining ahamiyati» nomli birinchi bobida mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining zaruriyati va iqtisodiy-ijtimoiy mazmuni yoritib berilgan. Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-nazariy asoslari o'rganilgan. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari o'rganilgan.

Tadqiqot ishining «O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirishning hozirgi holatining tahlili» nomli ikkinchi bobida pensiya ta'minoti tizimini huquqiy asoslarining holati ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining faoliyati tahlil qilingan. O'zbekistonda fuqarolarning pensiya ta'minotida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishining «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari» nomli yakuniy bobda O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining xorijiy tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini rivojlantirish istiqbollari aniqlangan.

Tadqiqot ishining yakunida O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimini rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

I BOB. OBOD TURMUSH YILIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING ZARURIYATI VA PENSIYA TA'MINOTINING AHAMIYATI

1.1. Ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati va iqtisodiy-ijtimoiy mazmuni

Davlat qurilishi dasturi va O'zbekistonni iqtisodiy isloh qilishning butun o'zagini mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"ga xos besh asosiy tamoyil tashkil etgan bo'lib, unda aholining turmush darajasini hisobga olgan holda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish lozimligi qayd etilgan.

Har qanday jamiyatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular ob'ektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'lig'i, ishsizlik darajasi) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan "Xalq farovonligini, barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish qilib belgilab, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning farovonligi uchun amalga oshiriladi"⁴.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadi, avvalo, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratildi. Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, aholining barcha tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligini kuchaytirish, «2013 yil - Obod turmush yili» dasturini ro'yobga chiqarish asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan pensiya ta'minoti organlarining roli yanada oshirilmoqda. "Farovonlik kishilar is'temol etadigan ne'matlarning miqdori va sifatini, hayot kechirishning umumiy shart-sharoitlarini qandayligini bildiradi. Farovonlik ko'rsatkichini faqat iste'mol hajmi bilan cheklanib

⁴Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: "O'zbekiston". 1999. -B42.

bo'lmaydi, chunki bunda jamg'arish esa kelajakdagi farovonlikni belgilaydi, shu sababdan buni bilvosita ko'rsatkich sifatida qarash mumkin. Jamg'armaning ko'pchiligi topilgan pulning joriy iste'moldan ortib qolganini bildirganidan uni ham farovonlikka xizmat qiladi, deb aytish mumkin. Pensiya jamg'armalaridagi fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari ularni davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi, muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi"⁵. Farovonlik darajasi aholining turmush darajasini ifodalaydi. Fuqarolarning hayotdagi ehtiyojlarini iqtisodiyot rivojlanishining muayyan holatida qondirilishi turmush darajasini bildiradi. Farovonlik – bu insonning yashashi uchun zarur mablag'lar miqdori va hayot uchun kerakli ehtiyojlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari yig'indisidir.

«Ijtimoiy himoya» atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning «Ijtimoiy himoya to'g'risida»gi Qonunida ishlatilgan. Bu qonun keksalik, o'lim, nogironlik va ishsizlikdan majburiy sug'urtalash instituti faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi, mazkur qonun mamlakat uchun yangilik bo'lgan. Tez orada bu atama dunyoning ko'pgina mamlakatlarida va XMTda keng qo'llanila boshlandi, chunki qonun keksalar hamda mehnatga qobiliyatsizlarga yordam berish milliy dasturlari va tizimini tashkil etish muammosining mohiyatini sodda va tushunarli tarzda ifodaladi. XMT, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta'minot assosiasiyasining ijtimoiy sug'urtalash va ijtimoiy yordam, ishlayotganlarga mehnatga qobiliyatsizlik hollarida eng kam daromadlarni kafolatlash bo'yicha, shuningdek, mehnat sharoitlari va uni muhofazalash, ish haqi sohasidagi konvensiyalar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda qabul qilishda «Ijtimoiy muhofaza» tushunchaning doirasi ancha kengaytirildi. XMTning bu sohadagi "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida" 102-sonli Konvensiya (1952); "Ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik

⁵O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2006. –B.433.

to'g'risida" 118-sonli Konvensiya (1962); "Keksa mehnatkashlar to'g'risida" 162-sonli Konvensiya (1980); "Ijtimoiy ta'minot sohasida huquqlarni saqlash to'g'risida" 157-sonli Konvensiya (1982) va boshqa xalqaro hujjatlar bazasi sifatida o'rganildi.

O'zbekiston modeliga asos bo'lib xizmat qilgan mashhur besh tamoyildan biri - aholini ijtimoiy muhofaza qilishga va kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga qaratilgan mazkur tamoyil mamlakatimiz ichki siyosiy barqarorligi uchun o'ta muhim shartlardan biridir. Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlashni, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish – davlatniig aholiga normal hayot faoliyati uchun yaratadigna shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. “Ijtimoiy soha — ijtimoiy hayotning nisbatan mustaqil sohasi, unda xilma-xil ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy sub'ektlarning munosabatlari amalga oshadi, shaxsning ijtimoiy shakllanishi yuz beradi. Shu bilan bir vaqtda ijtimoiy ne'matlar yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatishda band bo'lgan kishilar faoliyatining sohasi «ijtimoiy soha» o'z mazmun ifodasiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchi kishilarni qamrab oladi”⁶.

Davlatning ijtimoiy xizmatlari jamiyatning boyligi hisoblanadi, umumjamiyat ehtiyojlarni qondirish uchun yaratiladi va mamlakatdagi barcha fuqarolar qariganda bu xizmatlardan foydalanishi mumkin. Respublikamizda “pensiya, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» oshiriladi⁷. Pensiya – belgilangan (pensiya) yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo'qotilganda, shuningdek belgili muddat xizmat qilgani uchun va

⁶Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izoxli lug'ati. -T.: “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti”. 2004. –B.73.

⁷O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -Toshkent. “O'zbekiston”. 2008. –B.9.

davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishidir.

Zamonaviy iqtisodiyotga o'tish uchun shunday samarali tizim zarurki, har bir fuqaroning mehnat salohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, jinsi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'iy nazar, davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo'lishini kuchaytirish islohotlarni o'tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch bo'ladi, ular muqarrarligining garovi bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatda aholini ijtimoiy ximoyalash chora-tadbirlari inson uchun, uning hayoti farovon bo'lishi va ehtiyojlari ro'yobga chiqishiga sharoit yaratish uchun amalga oshiriladi. Keksalarga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirish vazifasining ijobiy hal etilishi aynan pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotiga bog'liq.

Respublikamizda "qabul qilingan o'rta muddatli iqtisodiyot tarmoq va sohalarini yuksaltirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda hududlarning investision jozibadorligini oshirish bo'yicha mamlakatimiz aholisining bandligi va fuqarolarning daromadlarini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini 2013 yilda barqaror rivojlantirishni ta'minlashga doir asosiy vazifalardir"⁸. "Aholini turmush darajasini oshirish va aholini ijtimoiy himoyalash davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bozor o'z-o'zidan mazkur sohani tartibga sola olmaydi, shuning uchun bu sohani tartiblashni davlat o'z zimmasiga oladi. Davlatning ijtimoiy siyosatdagi ustuvorlarini to'g'ri belgilab olmasligi, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirishi mumkin"⁹.

Ijtimoiy siyosatda fuqarolar hayotini uch asosiy bosqichga ajratish muhimdir:

⁸O'zbekiston Respublikasini 2013 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. \ -T.: Ma'rifat. 2013. 1 may. 35 (8580)-son.

⁹Рустамов Э. Оценка уровня жизни населения. // Иктисодиёт ва таълим. -Тошкент. 2011. -№2. – Б.12.

- mehnat qilishni boshlagungacha (mehnat faoliyati boshlangunga qadar bo'lgan inson hayoti, ma'lumot olish va kasb o'rganish davri);
- mehnat qilish davri (o'z farovonligi va jamiyat farovonligi yo'lida qilinadigan faoliyat);
- mehnat qilish tugagan davr (asosan hayot faoliyatining passiv davri — pensionerlik, nogironlik.).

“Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarini oladi: tug'ilish va o'lim darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar; hayot kechirish-ning sanitariya-gigiena sharoitlari; oziq-ovqat tovarlarini is'temol qilish darajasi; turar-joy sharoitlari; ma'lumot va madaniyat, mehnat qilish va bandlik sharoitlari; aholining daromadlari va xarajatlari; hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlar; transport vositalari; dam olishni tashkil etish; ijtimoiy ta'minot»¹⁰.

“Mamlakatimizda rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlangan strategimizni va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta bag'ishlaydi”¹¹. Ijtimoiy siyosatning zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda aholi uchun qiyinchiliklarni yengillashtirish bilan bog'liq.

“Davlat xarajatlarini guruhlarga ajratishda funksional prinsipdan foydalanish mamlakat taraqqiyotining ichki muammolarini hal qilish va dunyo hamjamiyati bilan o'zaro munosabatlar orqali ifodalanadigan davlatning barcha funksiyalarini namoyish qilishi mumkin. Shu narsaning o'zi tizimlashtirilgan ko'rinishda yo'nalishlarining ustuvorligini aks ettirishga va davlat tomonidan tartibga solish jarayonining ta'sirchanligini baholashga imkon

¹⁰Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. -T.: “TDIU”. 2007. -B.31

¹¹Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O'zbekiston”. 2010. -B.80.

beradi. Masalan, davlatning sosial funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar aholi kam ta'minlangan qatlamlarining malaka, tibbiy xizmat, uy-joy, kafolatlangan minimal pensiya va nafaqalar olishga tegishli sharoitlarini yaratadi"¹². Ehtiyojmandlar, ayniqsa, keksalar va nogironlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash xalqimizga xos fazilatdir.

«Pensiya - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovidir"¹³. Pensiyaga oid hujjatlar yig'ma jildi turadigan joy - pensiya olish joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limidir.

1.2.Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-nazariy asoslari

Ijtimoiy sug'urta fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishga konstitusion huquqi borligini ko'rsatadi. To'lanadigan mablag'lar miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari pul to'lovlari ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish imtiyozli yordam ko'rinishida ishlatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda resurslar hajmi jihatidan birinchi o'rinda pul to'lovlari turadi. Ular pensiya, nafaqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, daromadidan qat'iy nazar ijtimoiy sug'urta kafolatlarini (pensiya, nafaqa va xizmat) ma'lum miqdorini olishni

¹²Vohobov A.V., Malikov T.S Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008. -B. 183.

¹³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori.

ta'minlashga qaratiladi. Majburiy ijtimoiy sug'urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollarida, ish qobiliyatini yo'qotganda, onalik va bolalikni muxofaza qilishda moddiy ta'minlovchi davlat kafolat tizimi sifatida karaladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar xodimlari va ishchilarning maqsadli mablag'lari, yakka tadbirkorlikning badallari hamda davlat byudjeti maablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

Davlat ijtimoiy sug'urta orqali quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ➡ ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning xarajatlarini qoplashga qaratilgan pullik fondlarni shakllantirish;
- ➡ mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning tuzilma va zarur miqdorini ta'minlash;
- ➡ jamiyatning ishlovchi va ishsiz a'zolarini moddiy ta'minlashdagi uzilishlarni kamaytirish;
- ➡ aholining mehnat jarayonida jalb etilmagan guruhlarining yashash darajasini ko'tarishga erishish.

Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, shu bilan birga ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda ijtimoiy himoyalanganlik, haqqoniylikni ta'minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq, pensianing quyidagi turlari qo'llanib kelinyapti¹⁴:

- ↪ qarilik pensiyasi;
- ↪ nogironlik pensiyasi;
- ↪ boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi;
- ↪ xizmat qilgan yillari uchun pensiya;
- ↪ ijtimoiy pensiya.

¹⁴Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. –B.340.

Jamiyatning har bir a'zosining ehtiyojlarini qondirishga mo'l-jallangan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davlat moliyasi, byudjet siyosatining o'zagini tashkil etadi. Chunki har bir insonning yoki biror ijtimoiy guruhning, qolaversa, millatning ijtimoiy manfaatlari doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat tizimining munosabatlarida va Davlat byudjeti xarajatlarida namoyon bo'ladi.

“Agar davlatning xarajatlari turli xildagi pensiyalarni (yosh bo'yicha, nogironlik, boquvchisini yo'qotganda, alohida xizmatlari uchun) va nafaqalarni to'lashga yo'naltirsa, u holda davlat tomonidan mablag'larni berishning o'ziga xos – transfert tarzda berilishi sodir bo'lib, bunda mablag'larni soliq to'lovchilardan shu to'lanmalarni oluvchilarga beriladi va uchrashuvchan xizmatlarning taqdim etilishi, bu yerda sodir bo'lmaydi. Bunday holda yangi qiymat yaratilmaydi va fuqarolarning huquqini ta'minlash uchun tovarlar va xizmatlar iste'moli berilishi kuzatiladi. Bunday xarajatlar transfert xarajatlar deyiladi. Bu xarajatlar jamiyatning jami daromadlari uning a'zolari o'rtasida taqsimlanishini o'zgartiradi”¹⁵. Byudjet transfertlari - byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'laridir»¹⁶.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va ijtimoiy manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi. Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus byudjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim xarakteri hamda ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Bu fondlar o'zini-o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

¹⁵Vohobov A.V., Malikov T.S Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. –B. 182.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr.3-modda.

Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug'urtaning o'rnini va roli sezilarli oshib borib, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug'urtlanganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiyalar, nafaqalar hajmini hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini o'sishi, ularni moliyalashtirish mexanizmi va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo'ladi.

O'zbekiston jahonda aholisi soni barqaror sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining yosh tarkibida yoshlar katta salmoqqa ega bo'lishiga qaramasdan keksalarning salmog'i barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi tobora yaxshilanib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ushbu holatlar o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta masalalariga nisbatan jiddiy e'tibor berishni taqozo etib, jumladan, pensiya tizimiga oid masalalar alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda pensiya tizimiga ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Respublikamizda "davlatning ijtimoiy himoya sohasi uchun sarflagan xarajatlari, aholi jon boshiga hisoblaganda, besh martadan ko'proq oshdi, har yili Davlat byudjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirilmoqda. Shu davrda yurtimizda odamlarning o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi, onalar o'limi 3,1 barobardan ziyod, bolalar o'limi 3,2 barobar kamaydi"¹⁷.

Aholining yoshga ko'ra tarkibi— aholining yosh guruhlari, avlodlar bo'yicha tavsifi. Bu demografik, sotsial va iqtisodiy tahlil uchun asos bo'ladi. Hayot tsikllarini davriylashtirish turli mualliflarda turlicha asosga ega. Demograf olim B.T.Urbanis tasnif asosiga individning ijtimoiy foydali mehnatdagi ishtirokini qo'yadi: nikohgacha davr (go'daklik davri — 3 yoshgacha, bog'cha yoshi — 3—6, maktab yoshi — 7—15); ishchilik davri (yoshlik davri — 16—24, yigitlik

¹⁷O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar. Statistik to'plam – T.: "O'zbekiston". 2011. –B.5.

davri — 25—44, oʻrta yosh davri —45—59); ishchilikdan keyingi davr (keksa kishilar — 55—64, keksalik davri 65—74, qartaygan davr — 75—85, qarilik davri — 85 yosh va undan yuqori).

Amerikalik tadqiqotchi I.Alan sotsiologik va psixologik sharhlarni oʻz ichiga olgan hayot sikli bosqichlari taʼrifini taklif etadi. Polʼshalik sosiologlar inson yoshini maʼlumot darajasi va mehnat yiliga nisbatan taqsimlaydilar. Aholinig yoshga koʻra tarkibi mehnat zahiralari miqdori, ish oʻrinlariga boʻlgan talab va zarur ijtimoiy infratuzilma haqida tasavvur beradi, shuningdek, pensiya taʼmnoti boʻyicha istiqbolni rejalashtirishning boshlangʻich nuqtasi boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda qarish va qarilik muammolari umumjahon miqyosida tobora jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Bunda qarish jarayon, qarilik esa uning natijasi sifatida tushuniladi. Qarish jarayoni shaxsning oʻrtacha yoshdan katta yoshlilar guruxiga oʻtishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat uchun bu umumiy (uning demografik ijtimoiy va siyosiy tuzilishi) boʻladi.

Qarilik har kanday organizm rivojining oxirgi bosqichidir. Qarish barcha jarayonlar kabi bir qancha bosqichlarni iborat. “Butunjahon Sogʻliqni Saqlash tashkiloti uchta xrononologik bosqichni belgilaydi: 60 yoshdan 74 yoshgacha keksalik; 75 dan 89 yoshgacha qarilik; 90 va undan katta yosh uzoq umr koʻruvchilar yoshi sifatida ajratiladi”¹⁸.

Fikrimizcha, qarishni aniq son bilan aniqlash qiyin, bu koʻrsatkich tarixiy xarakterga ega, umumjahon standartlari mavjud. Oʻrtacha umr davomiyligi bilan bogʻliq holda koʻrib chiqiladi. Oʻzbekistonda oʻrtacha umr davomiyligi koʻrsatkichlarini hisobga olib olib, shu bosqichlarni aniqlash mumkin. BMT ning Statistik byurosi va aholi boʻlimi hamda milliy statistik tashkilotlarning maʼlumotlariga koʻra, oʻrtacha umr davomiyligi Evropada erkaklar uchun 71-yoshni, ayollar uchun 79 yoshni, dunyoda shunga mos ravishda 64 yosh va 68 yoshni, Oʻzbekistonda uchun quyidagi bosqichlar mos keladi. Kexsa kishilar (60-69 yosh), kariyalar (70-84 yosh), uzoq umr kuruvchilar (85 yosh va undan

¹⁸Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Asosiy omillar. –Toshkent. BMTning Oʻzbekitndagi vakolat xonasi. –B. 214-215.

kattalar). Fuqarolarning yoshlarini davrlarga bo'lishda ham mana shu farq hisobga olinadi. Chunki Zambiya va Malida aholining o'rtacha umri 43-44 yoshga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda o'rnatilgan an'analarga muvofiq hisob-kitob to'plamlarida 54 yoshdan oshgan ayollarni keksalar guruhiga kiritish yuridik asoslangan¹⁹. Erkaklar uchun keksalikning quyi yosh chegarasi (60 yosh) ijtimoiy – iqtisodiy, ilmiy-amaliy va madaniy omillar ta'sirida doimo yuqoriga suriladi.

Ijtimoiy qarilik to'g'risida gapirganda, uning umumiy jamiyat yoshi bilan muvofiq kelishin ta'kidlab o'tish joiz. Ijtimoiy yosh muayyan mamlakatdagi o'rtacha umr davomiyligi bilan belgilanadi. O'rtacha umr davomiyligi Zambiya va Malida 43-44 yil bo'lib, qariyalarning umr ko'rish ko'rish davomiyligi yuqori bo'lgan Yaponiya yoki AQShga nisbatan ancha yoshroq hisoblanadi. Mutaxassislar qarishni ko'p jihatdan biologik jarayon emas, balki ijtimoiy jarayon deb ta'kidlaydilar. Bu turli davr va madaniyatlar, ijtimoiy katlamlar, guruhlar hamda etnik tarkib vakillari uchun muhim.

Aholining qarish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shaxsning qarish chegarasi shuncha nariga suriladi. Ijtimoiy qarilikning boshlanishi aholining demografik qarish va boshqa ijtimoiy belgilar bilan boshqariladi. Bularga mehnat va dam olish sharoitlari, sanitariya gigienik qoidalar, sog'liqni saqlash darajasi va ijtimoiy ta'minot, madaniyat, va ilm olish, ekologik xavfsizlik, ishlab chiqarishning rivojlanishi, moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi hamda sog'lom turmush tarzi kiradi. XX asrning ikkinchi yarmida juda keng miqyosda demografik o'sish bo'lganini ta'kidlash lozim. Bu hol barcha yoshdagilar, ayniqsa, katta yoshdagilar qatlamlar uchun xarakterlidir.

“Pensiya” (lotin tilidagi **“pension”** so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda “to'lov” ma'nosini anglatadi) so'zi esa birinchi marta XY asrning II yarmida Lyudovik XI davrida Parij Hisob palatasining hujjatlarida qayd etilgan. Har yili Angliya hazinaboni va arboblari uchun to'lab turiladigan

¹⁹Sodiqova Sh. Keksalarning jamiyatda tutgan o'rni. // Jamiyat va boshqaruv. --Toshkent. 2006. №1. – B.52.

to'lovlarni anglatadi. Pensiya dasturlari II jahon urushi davrida, ya'ni ish haqini muzlatib qo'yish sababli ishchilarning pensiya jamg'armasiga ajratma ajratish qiyinlashgan paytda tarqala boshladi.

Jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, ijtimoiy sug'urta samaradorligini oshirishda yetakchi o'rinni pensiya tizimi egallaydi. O'zbekiston Respublikasining pensiya tizimi sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini shakllantirish va undan foydalanishga asoslanadi.

Xorijiy davlatlarda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

⇒ korxonalariga kreditlar, subsidiyalar berish, ularni moliyalashtirish yo'llari bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatiladi;

⇒ ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish, subsidiya, nafaqa va turli xil transfertlarni berish yo'li bilan aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi;

⇒ chet davlatlarga, xorijiy hamkorlarga qarzlar beriladi.

Pensiya tizimi asosini tashkil etuvchi byudjetdan tashkari fondlarning xususiyatlariga muvofiq²⁰ pensiya jamg'armasi uchun quyidagi belgilar xosdir:

- a) ijtimoiy sug'urtaning muhim elementi ekanligi;
- b) byudjetdan tashqari jamg'armaligi;
- c) daromad manbalari aniq belgilanganligi;
- d) mablag'larning oldindan belgilangan tartibga muvofiq qat'iy maqsadli va manzilli ishlatilishi;
- e) mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish muddatlarining bir-biriga o'zaro muvofiq kelmasligi;
- f) mustaqil moliya-kredit tashkiloti ekanligi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi ikki qismdan iborat:

²⁰Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. –B.20.

- birinchisi, ishchilarning sog'lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o'tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni ta'minlash;
- ikkinchisi, mehnat qobiliyatini yo'qotganda yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotini kafolatlash.

Har qanday jamiyatning insonparvarligi qariyalarga munosabatida namoyon baladi, ularga oqibatli bo'lish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilat. Bu fazilat milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Qariyalarga izzat-ikrom ko'rsatish, ularni qadrlash borasida mahallalar bosh-qosh ekanligi barchamizga ma'lum. Shu bilan birga yetim-esirlar, kam ta'minlangan oilalar, boquvchisini yo'qotgan yelg'iz keksalar, nogironlarga mehr-muruvvat ko'rsatish shart.

1.3.O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari

Respublikamizda amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimi ma'lum tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin. Pensiya ta'minoti rivojlanishining birinchi bosqichi 1917-1956 yillarni qamrab olib, «pensiya» tushunchasining paydo bo'lishi bilan ta'riflanadi. 1917-1919 yillarda pensiya ta'minoti yuzasidan el-likdan ortiq dekret qabul qilingan bo'lib, ularning asosiy g'oyasi mehnatga qobiliyatsizlarni ijtimoiy jihatdan ta'minlashni jamiyat zimmasiga yuklashdan iborat edi. 1930 yilda «Pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilgan, 1956 yilda «Davlat pensiyasi to'g'risida»gi qonun qabul qilingunga qadar pensiyalar mazkur Nizom asosida to'lab kelingan. Mazkur Nizomga muvofiq, pensiya bilan ta'minlanish huquqiga faqat mehnatdan jarohatlanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lgan shaxslargina ega bo'lgan. Bu bosqichning xususiyati yagona pensiya ta'minoti tizimining mavjud bo'lganligidir.

Pensiyalar har bir tarmoq uchun belgilangan alohida tartib asosida tayinlandi. Pensiya ta'minotini rivojlanishining ushbu bosqichiga xos muhim jihatlardan

biri, ikkinchi jahon urushi davrida pensiyaga oid qonun hujjatlari harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini pensiya ta'minoti haqidagi yangi qaror bilan to'ldirildi va takomillashtirildiki, ularni tizimning daromad qismida ishtirok etmagan holda, xarajatlar qismidagi ishtiroki, muayyan muammolar va e'tirozlarni keltirib chiqardi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilandi.

Ikkinchi bosqich 1956 yilda qabul qilinib, 1991 yilga qadar amal qilgan «Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi va ilk bor yagona pensiya tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqish va to'lashning yagona tartibini belgilab berdi. Mazkur qonunda jamoa xo'jaliklari xodimlarining pensiya ta'minoti ko'zda tutilmagan edi. Jamoa xo'jaliklari a'zolarining pensiya ta'minoti mahalliy miqyosda, ya'ni xo'jaliklararo pensiya jamg'armalari tuzish yo'li bilan hal qilingan va faqat 1964 yilga kelibgina pensiya ta'minoti aholining barcha qatlamlarini qamrab oldi. Pensiya tizimining mazkur ikki bosqichiga xos xususiyatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, bu bosqichlarda aholini pensiya bilan ta'minlash tizimi to'liq shakllantirildi.

Uchinchi bosqich ijtimoiy ta'minot tizimida islohotlarning boshlanishi va uning asosi bo'lgan "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 1990 yilda qabul qilinishi bilan belgilanadi. Ushbu qonunning qabul qilinish zaruriyati shundaki, avvalgi pensiya qonunchiligi nizolari bilan jamiyatda vujudga kelgan ko'pgina o'zgarishlar o'rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo'lib, jamoat iste'mol jamg'armalari hisobiga davlat tomonidan pensiya ta'minotini amalga oshirishni kafolatlash imkoni bo'lmay qoldi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, amaliyotda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiyalar va daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. Uchinchi bosqichda teng taqsimlash tamoyilidan chekinib, pensiya ta'minotining mehnat miqdori va sifatiga erishishga urinib ko'rildi. Amal qilib kelgan pensiya tizimida fuqarolarga ishlagan davri muddatidan qat'iy nazar, bir

miqdorda keksalik pensiyasi tayinlagan bo'lsa, yangi qonunda esa ko'p ish stajiga ega fuqarolarga pensiya ta'minotida ustunlik berildi. Mazkur qonunda pensiya miqdorini tayinlash uchun oylik ish haqi darajasi mezon sifatida qabul qilindi.

To'rtinchi bosqich 1991-2005 yillarni o'z ichiga olib, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan xarakterlandi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlash tashkil etadi. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq davlatlaridan asosiy farqi pensiya hisoblash sxemasidir. Ushbu sxema bo'yicha barcha turdagi «pensiylar uch qismdan iborat bo'ldi»²¹.

Birinchi qism kafolatlangan bo'lib, pensiyaning tayanch miqdorini tashkil etadi. Bu qism O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining talabidan kelib chiqqan bo'lib, pensiyaning eng kam miqdori davlat tomonidan belgilanadi. Ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi qism – pensiya tayinlash uchun talab etilgan stajdan ortiq bo'lgan har bir to'liq yil uchun pensiya miqdorini oshirishdir. Bu qismning zarurligi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, har bir shaxsning mehnat staji davomiyligini inobatga olish imkonini beradi. Uchinchi qism pensiyaga qo'shiladigan ustama bo'lib, jamiyat oldida xizmat ko'rsatgan yoki sog'lig'i tufayli qo'shimcha ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarga beriladi.

Yangi qabul qilingan qonunning muhim jihatlaridan yana biri, agar sobiq ittifoq davrida pensiyalarning besh turi mavjud bo'lgan bo'lsa, endi pensiyalarning quyidagi uch turi saqlanib qolgan: yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Qonunga muvofiq, umuman mehnat stajiga ega

²¹ O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr

bo'lmagan fuqarolarga ijtimoiy pensiya o'rniga nafaqalar tayinlash ko'zda tutilgan. Ko'p yillik xizmatlari uchun beriladigan pensiyalar esa yosh bo'yicha tayinlanadigan imtiyozli tarkibga kiritildi.

“Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha choralarning tarkibida davlat pensiyalari muhim o'rin egallaydi. Pensiya ta'minotining ijtimoiy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, hozirgi paytda O'zbekistondagi ko'plab qariyalar, nogironlar va ularning oila a'zolari, boquvchisini yo'qotganlarning hayotiy muhim manfaatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bozor munosabatlariga o'tilishi munosabati bilan davlat pensiya tizimi murakkab ahvolga tushib qoldi. Pensionerlarning daromadlari bo'yicha pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ortda qolmoqda. Qarilik bo'yicha pensiyaning o'rtacha miqdori hayotning yashash darajasidan ancha past. Shu munosabat bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida fuqarolarning pensiya ta'minoti bo'yicha huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini kuchaytirish va pensiya tizimini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida mamlakatda pensiya tizimi isloh qilinmoqda”²².

O'zbekistonda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish huquqini amalga oshirish tartibi, davlat pensiyalari yagona tizimini tashkil etish (ularni tayinlash, hisoblash, qayta hisoblash va to'lash tartibi) “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni bilan belgilangan. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish maqsadida 1993 yilda SSSR Pensiya fondining O'zbekiston respublikasi bo'limi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi. 1996 yilda Jamg'arma mustaqil moliyaviy strukturaga, pensiya ta'minoti moliyasini davlat boshqaruv organiga – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. 1997 yil 1 yanvardan Pensiya

²² Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. –B.340.

jamg'armasining pul mablag'lari O'zbekiston Davlat byudjetida mablag'larni sarflashda maqsadga yo'naltirilganlikni saqlagan holda jamlandi. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi 2000 yil 14 dekabrda Qonuniga binoan jamg'arma davlat maqsadli jamg'armasi maqomiga ega, 2005 yil 1 yanvardan esa Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining idoraviy qaramog'iga o'tkazildi.

Pensiya ta'minoti tizimi isloh qilinishining asosiy sababi ham fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid majburiyatlarni bajarish uchun davlatda moliyaviy resurslar yetishmasligidir. Hozirgi kunda pensiya tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Respublikamizda pensiya tizimi borasidagi muammolar va isloh etishning ob'ektiv zarurati Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining taraqqiy ettirishda jahon tajribasini chuqur tahlil etishni, mamlakatda demografik vaziyatning o'zgarib borishini, mavjud pensiya ta'minotining modernizatsiyalashni shart qilib qo'ydi.

I bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida birinchi bob yuzidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadi, avvalo, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratildi. Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, aholining barcha tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligini kuchaytirish, «2013 yil - Obod turmush yili» dasturini ro'yobga chiqarish asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan pensiya ta'minoti organlarining roli yanada oshirilmoqda.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish – davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun yaratadigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir .
3. Ijtimoiy himoyaning siyosiy vazifasi bo'yicha jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni muhofazalash bo'yicha Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlab qo'yilgan ijtimoiy va huquqiy normalarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy muhofaza institutlari va mexanizmlari barpo etiladi. Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifalaridan biri pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan tashkiliy-texnikaviy, tibbiy tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.
4. Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, shu bilan birga ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda ijtimoiy himoyalanganlik, haqqoniylikni ta'minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.
5. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug'urtaning o'рни va roli oshib borib, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug'urtlanganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiyalar, nafaqalar hajmini hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatinig o'sishi, ularni moliyalashtirish mexanizmi va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo'ladi.
6. Respublikamizda aholi turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy himoyalash tizimini amalga oshirish hamda fuqarolarga pensiya tayinlash va to'lash jarayonining umumiy asoslari ishlab chiqilgan. Hozirgi sharoitda pensiya ta'minotini takomillashtirishda hali hal qilinishi zarur bo'lgan uslubiy va moliyaviy muammolar mavjud.
7. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishida to'rtinchi bosqich 1991-2005 yillarni o'z ichiga olib, O'zbekiston Respublikasining

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me’yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o’rni, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog’liqligini ta’minlash tashkil etadi. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq davlatlaridan asosiy farqi pensiya hisoblash sxemasidir. Ushbu sxema bo’yicha barcha turdagi «pensiylar uch qismdan iborat bo’ldi.

8. Pensiya ta’minoti tizimi isloh qilinishining asosiy sababi ham fuqarolarning pensiya ta’minotiga oid majburiyatlarni bajarish uchun davlatda moliyaviy resurslar yetishmasligidir. Hozirgi kunda pensiya tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog’liqligi bilan belgilanadi. Respublikamizda pensiya tizimi borasidagi muammolar va isloh etishning ob’ektiv zarurati Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining taraqqiy ettirishda jahon tajribasini chuqur tahlil etishni, mamlakatda demografik vaziyatning o’zgarib borishini, pensiya ta’minoti tizimini modernizatsiyalashni, mavjud pensiya ta’minotining modernizatsiyalashni shart qilib qo’ydi.

9. Pensiya jamg’armasi uchun quyidagi belgilar xosdir:

- ijtimoiy sug’urtaning muhim elementi ekanligi;
- byudjetdan tashqari jamg’armaligi;
- daromad manbalari aniq belgilanganligi;
- mablag’larning oldindan belgilangan tartibga muvofiq qat’iy maqsadli va manzilli ishlatilishi;
- mablag’larni shakllantirish va ulardan foydalanish muddatlarining bir-biriga o’zaro muvofiq kelmasligi;
- mustaqil moliya-kredit tashkiloti ekanligi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA'MINOTINI MOLIYALASHTIRISHNI HOZIRGI KUNDAGI AHMIYATI

2.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining tahlili

Davlat o'z korxonalarini moliyaviy resurslarining bir qismini fondlarga safarbar etadi va siyosiy institut sifatida qator muhim ijtimoiy xizmatlardan barcha fuqarolar bahramand bo'lishini kafolatlaydi. Buning uchun korxonalar va muassasalar moliyaviy resurslarning bir qismini byudjetdan tashqari fondlar va maqsadli jamg'armalarini shakllantirish uchun safarbar qiladi.

Davlat moliyasining muhim zvenolaridan biri- davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlaridir. Davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi» qilinmoqda»²³. O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari fondlar davlat byudjeti bo'g'inlari bilan birga konsolidatsiyalashgan byudjetning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida konsolidatsiyalashgan byudjet 1996 yildan boshlab tuzila boshladi. Byudjetdan tashqari fondlar, davlat maqsadli jamg'armalari yuridik shaxs sifatida faoliyatini amalga oshiradi, ularning manbalarini tashkil etishning va ulardan foydalanishning yo'llari qonun hujjatlarida aniqlandi.

«Davlat moliyasi rivojlangan mamlakatlar YaIM ning katta qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Yaponiyada - $\frac{1}{3}$, Fransiya, Niderlandiya, Norvegiyada - $\frac{1}{2}$, Shvesiyada - $\frac{2}{3}$, Rossiyada - $\frac{1}{3}$. Respublikamizda ham davlat moliyasining asosiy daromatlari va shunga mos ravishda xarajatlarini aynan davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Qolgan qismi esa

²³ O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr.

byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari hissasiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham davlat moliyasi tizimida davlat byudjeti uning markaziy va asosiy bo'g'ini xisoblanadi»²⁴. Quyidagi jadvalda YaIMda davlat byudjeti xarajatlarining ulushini ko'rishimiz mumkin. Davlat byudjeti xarajatlari YaIMga nisbatan yildan-yilga o'zgarib bormoqda. Ya'ni 1991 yilda 52,7 foizni, 1994 yilda 33,3 foizni, 2000 yilda 29,0 foizni, 2005 yilda esa 21,5 foizni, 2010 yilda 21,6 foizni tashkil etdi.

2.1.1.-jadval.

Davlat byudjeti xarajatlarining YaIMdagi ulushi²⁵.

(foizda)


Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1991	1994	2000	2005	2010
YaIM	100	100	100	100	100,0
Davlat byudjeti xarajatlari	52,7	33,3	29,0	21,5	21,6

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qaror qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan

²⁴Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iktisod va moliya. - Toshkent. 2012. -№12. – B.51.

²⁵O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlarini. Statistik to'plam – T.: «O'zbekiston». 2011. –B. 38.

maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi. Quyidagi rasmda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masining maqsadlari berilgan.



2.1.1.-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masining maqsadlari.²⁶

²⁶O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarori.

Jamg'arma "O'zbekiston pochta" ochiq aksiyadorlik jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo'linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensasiya to'lovlari hamda boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o'rganadi. Jamg'armaning mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimiga:

- Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensasiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;
- pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;
- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya

ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

- mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi. Jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to'lovlar va badallar:

belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;

alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;

fuqarolarning sug'urta badallari;

jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari;

majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;
- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari);
- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, Davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

⇒ manbalar turlari bo'yicha Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi nazorat qilinishini;

- ⇒ manbalar turlari va to'lovchilar bo'yicha Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar hisobi yuritilishini;
- ⇒ yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar to'g'ri hisoblanishini, shuningdek Jamg'arma bilan o'zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;
- ⇒ qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilishini;
- ⇒ badallarning shaxslar bo'yicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Jamg'armaga yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan to'langan badallarning miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

2.1.2-jadval.

Yuridik shaxslarning ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi²⁷

(foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	25,0	24,0	24,0	24,0	25,0	25,0	25,0	25,0
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	24,2	23,5	23,5	23,6	24,8	24,8	24,8	24,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	0,5	0,3	0,3	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1
Kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi	0,3	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari.

Respublikamizda yaratilayotgan YaIMga nisbatan soliq to'lovlari va davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlar miqdori nisbati unchalik katta ko'rsatkichni tashkil etmaydi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslarning ish haqi fondidan «Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma»ga tushadigan mablag'lar uchun belgilangan stavka 2007-2008 yillarda 0,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda 0,2 foizni tashkil etdi, 2010 yilda 0,1 foiz belgilandi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga tushadigan mablag'lar uchun to'lov stavkasi 2006-2008 yillarda 23,5 foizni tashkil etdi, 2009 yilda 23,6 foizga teng bo'ldi, 2010-2013 yilda 24,8 foiz o'zgarmadi.

“YaIT to'lovchilari hisobot oyida xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlaridan va Nizomda belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda jami korxonada bo'yicha YaITning bazaviy miqdorini aniqlaydilar. YaITning bazaviy miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{BRyait} = \mathbf{K/n} * \mathbf{N},$$

bu yerda: **BRyait** - YaITning bir oy uchun bazaviy miqdori;

K - bir oyda barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (bir kunda ishlagan soatlaridan qat'iy nazar) soni, biroq korxonada o'rnatilgan ish kunlari sonidan ortmagan xolda. Xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlariga, shuningdek yillik mehnat ta'tillariga va ish haqi saqlangan holda beriladigan ta'tillarga to'g'ri keladigan kunlar ham taalluqlidir²⁸.

YaITni hisoblab chiqarishning tartibi buzilgan hollar aniqlanganda, davlat soliq xizmati organlari YaITning bazaviy miqdoridan kelib chiqib, qonun hujjatlariga muvofiq penya hisoblagan holda, YaITni qo'shimcha hisoblaydi. Bunda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'shimcha hisoblangan YaIT

²⁸O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq Qo'mitasining 2009 yil 5 fevraldagi Qarori. “Yagona ijtimoiy to'lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom.

summasi to'lovchi ixtiyorida qoladigan foyda hisobidan undiriladi va foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan foydadan chegirilmaydi.

Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1024-son Qaroriga muvofiq yagona ijtimoiy to'lovning bazaviy miqdori kiritilishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan YaITni hisoblab chiqarish va to'lash tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga: tushgan majburiy to'lovlar, badallar va to'lovlar to'g'risidagi, Jamg'armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlar turlari bo'yicha qarzlarni to'g'risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha; majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni hisoblash va to'lash to'g'risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

Jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarida maqsadli jamg'armalar xarajatlarining salmog'i berilgan. Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari 2011 yilda 29,4 foizni tashkil etdi, 2012 yilda 31,0 foizga ko'tarildi. 2013 yilda 32,6 foiz rejalashtirildi.

Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi 2011 yilda 79,5 foizni tashkil etdi, 2012 yilda 76,8 foizga tushdi, 2013 yilda 75,9 foiz belgilandi. Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari davlat maqsadli jamg'armalari tarkibida salmoqli o'rinni egallaydi, jamg'arma mablag'lari bilan ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga e'tibor qaratildi.

2.1.3.-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarida maqsadli jamg'armalar xarajatlarining salmog'i²⁹

mln.so'mda

Ko'rsatkichlar	Y I L L A R					
	2011		2012		2013	
	miq-dori mln.so'm	foiz-da	miq-dori mln.so'm	foiz-da	miq-dori mln.so'm	foiz-da
Davlat byudjeti xarajatlari	16991100,0	64,7	21571700,0	63,9	26312400,0	63,2
Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari (Pensiya jamg'armasi, Yo'l jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma, Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisobraqami)	7725383,1	29,4	10499800,0	31,0	13571900,0	32,6
Jumladan						
Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	6144400,0	79,5	8064500	76,8	10302000	75,9
O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1368332,3	5,2	1496800,0	4,5	1545100,0	3,7
Maktab ta'limi jamg'armasi						
Moliya vazirligi huzuridagi yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondi	184500	0,7	210000,0	0,6	227500,0	0,5
Jami	26269315,4	100,0	33778300,0	100,0	41656900	100,0

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

2.1.4.-jadval.

**O'zbekiston Respublikasining Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi
daromadlari va xarajatlarining o'zgarishi
(2011-2013 yillar)³⁰**

(mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2011	2012	2013
Jami daromadlar	6144,4	8064,5	10302,1
Yil boshiga qoldiq	0,5	280,1	602,2
Daromadlar			
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lov	3903,4	4799,2	5907,4
Fuqarolarning majburiy badallari	720,4	1110,2	1482,7
Sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratma	1122,7	1401,5	1591,3
Boshqa daromadlar	397,4	474,4	718,5
Xarajatlar	6144,4	8064,5	10302,1
Ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar	5862,7	7246,0	9097,6
Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar	278,9	290,9	317,4
Xomiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari	0,7	12,8	20,5
Boshqa xarajatlar	1,6	1,8	2,1
Yil oxiriga qoldiq			
Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga ajratmalar	0,5	513,9	864,2

³⁰O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

Quyidagi jadvalda Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining o'zgarishi berilgan. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm rejalashtirildi. Ish haqidan yagona to'lov salmoqli o'ringa ega. Daromadlar tarkibida ish haqidan yagona to'lov 2011 yilda 3903,4 mlrd.so'mni (63,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 4799,2 mlrd.so'mga (60,0 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 5907,4 mlrd.so'm (57,3foiz) rejalashtirildi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm rejalashtirildi. Jamgarma daromadlari tarkibida sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar 2011 yilda 1122,7 mlrd.so'mni (18,2 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 1401,5 mlrd.so'mga (17,3 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 1591,3 mlrd.so'm (15,4 foiz) rejalashtirildi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm belgilandi. Jamg'arma mablag'laridan ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlari 2011 yilda 5862,7 mlrd.so'mni (95,4 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 7246,0 mlrd.so'm (89,9 foiz)ga ko'tarildi, 2013 yilda 9097,6 mlrd.so'm (88,3 foiz) rejalashtirildi. Ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar 2011 yilda 278,9 mlrd.so'mni (4,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 290,0 mlrd.so'mga (3,6 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 317,4 mlrd.so'm (3,0 foiz) rejalashtirildi. Homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, dafn marosimi nafaqalari 2011 yilda 0,7 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 12,8 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 20,5 mlrd.so'm rejalashtirildi.

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona to'lov salmoqli o'ringa ega. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'arma xarajatlari tarkibida ishlamaydigan va ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlariga yo'naltiriladi.

2.1.5.-jadval.

G'aznachilik mexanizmiga o'tkazilgan Davlat byudjetning tarkibidagi davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari ro'yxati³¹.

№	Davlat byudjeti tarkibidagi maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar	G'aznachilik tomonidan qamrab olinishi		
		Respublika	Viloyat	Tuman
1.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	X	X	X
2.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Yo'l jamg'armasi	X	X	
3.	Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisobraqami	X	X	
4.	Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	X	X	X
5.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Maktab ta'limi jamg'armasi	X	X	
6.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi yerlarni meliorativ holatini yaxshilash fondi	X	X	
7.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Kitob jamg'armasi	X		
8.	Ipoteka kreditlashni qo'llab-quvvatlash fondi	X		
9.	Qishloq xo'jaligi texnikasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash fondi	X		

³¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1024-son Qarori.

Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari ijrosi jarayoniga yangi tashkil etilgan g'aznachilik organlari, ya'ni yangi sub'ektlarning kiritilishi bilan, barcha byudjet jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarida o'ziga xos mexanizm ishlay boshlaydi. Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va byudjetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari va byudjetdan tashqari mablag'lari ijrosi bilan bog'liq barcha moliyaviy jarayonlar yanada batafsil tartiblash talab etiladi.

Quyidagi jadvalda g'aznachilik mexanizmiga o'tkazilgan Davlat byudjeti tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari fondlar ro'yxati berilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Moliya vazirligining G'aznachiligi byudjet tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda 2009 yilning yanvar' oyida, o'tkazilgan operatsiyalarni 2008 yilgi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotda aks ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiktisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» gi 1024-son Qaroriga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 2009 yildan boshlab (ro'yxatga muvofiq) davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar daromadlari va xarajatlarining g'aznachilik ijrosi mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari amalga oshirilishini ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi 2010 yil 1 yanvardan boshlab barcha vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari Davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2010 yil 4 martdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olish va Moliya vazirligi G'aznachiligi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlar bazasi va dasturiy majmuini integrasiya qilish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida" gi

253-son qaroriga muvofiq 2010 yil 28 martda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'yicha hududiy g'azna hisobraqami ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30-son Qarorining 8-bandida ko'rsatilishicha, Jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi (keyingi o'rinlarda G'aznachilik deb yuritiladi) hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensasiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi³². Mazkur Qarorining 11-bandida ko'rsatilishicha, majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni o'tkazish Jamg'arma daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo'yicha Jamg'armaning banklardagi tegishli hisob raqamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2011 yil 2 dekabrda BA\31-01\1-34-13\800 sonli xati asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chikib, 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab respublika va mahalliy byudjet daromadlari, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari 2012 yil 1 yanvardan boshlab Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa Markazida ochilgan Yagona g'azna hisobvaragiga kirim qilinadi va xarajatlarni ushbu hisobvaraqdan to'lab beriladi. Byudjet tashkilotlari va fond mablag'larini tasarruf etuvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish hamda ilgari ochilgan shaxsiy hisovaraqlar orqali tegishli operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'zgartirishlar bo'lmaydi hamda ushbu shaxsiy hisobvaraqlardan xarajatlarni amalga oshirishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.


³²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarori.

Byudjetdan mablag' oluvchilarning 2012 moliya yilidan boshlab byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadigan (tovar ishlab chikarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish, to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) tushumlarida oluvchi, ya'ni g'aznachilik rekviztlari qismida Yagona g'azna hisobvarag'i rekviztlari ko'rsatiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilar o'z mijozlariga (tovar ishlab chikarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish) yoki boshqa mablag' to'lovchilarga (to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tegishli shaxsiy hisobvaraqlarni yetkazishlari va to'lovlarni amalga oshirishda to'lov maqsadida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ko'rsatishlari shart. Aks xolda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli tushumlar noaniq tushumlar hisobvarag'iga kirim qilinadi va aniqlik kiritish maqsadida to'lovlar amalga oshirilgan bank hisobvarag'iga qaytarib yuboriladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-sining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarorining 11-bandida o'zgartirishlar kiritish maksadga muvofiq bo'ladi.

2.2.O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti jarayonlarining tahlili

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitusiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi.



2.2.1.-rasm.Davlat pensiyalari turlari³³.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega:

- ⇒ erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;
- ⇒ ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish


³³ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr.

huquqiga ega bo'ladilar, Yoshidan qat'i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati; umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati; umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- ❖ pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ❖ ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- ❖ pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlari pensiyalar tayinlash masalalari yuzasidan tushuntirish va ma'lumotlar berishlari, shuningdek arizachiga zarur hujjatlarni olishida ko'maklashishlari shart. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlari korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslardan tegishli hujjatlarni talab qilish, zarur hollarda esa, ularning berilishi asosligini tekshirish huquqiga ega. Korxonalar va tashkilotlar pensiya uchun (pensiya qayta hisoblanishi uchun) hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki ishonchsiz ma'lumotlari bo'lgan hujjatlarni taqdim etish oqibatida pensionerga yetkazilgan zarar uchun uning oldida qonun hujjatlarida belgilanganidek javobgar bo'ladilar. Korxonalar yoki pensioner tomonidan ma'lumotlari ishonchsiz hujjatlar taqdim etilganligi oqibatida davlatga zarar yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zararining o'rnini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga qoplanadi. Bunda korxonalar tomonidan yetkazilgan zararining o'rnini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari

Pensiya jamg'armasi bo'limidan tegishli xabarnoma olingan kundan e'tiboran qoplanadi.



2.2.2.-rasm. Pensiyani qayta hisoblash³⁴.

Pensiyalarni qayta hisoblash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish staji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;
- nogironlik guruhi o'zgarganda;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda;
- eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda;
- daromadlar indeksasiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo'lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

³⁴ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida" 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarorini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori kabul kilindi. Mazkur Qarorining 1-ilovaga muvofiq, Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash, pensiya imtiyozlarini qo'llash va fuqarolarni pensiya bilan ta'minlashga bog'liq boshqa masalalarni hal qilish tartibini belgilaydi.

Jamg'arma mablag'lari:

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensasiya, boshqa to'lovlarni to'lash;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensasiya to'lovlari va boshqa to'lovlar uchun sarflanadi.

Jamg'arma mablag'larini belgilangan tartibda o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish, o'z vaqtida tayinlash, to'lash va manzilli ravishda sarflash, shuningdek Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilish yuzasidan - Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ta'minlanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensasiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisob raqamlari ochiladi. Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

2.2.1.-jadval.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining shahar bo'limidagi pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar soni³⁵.

kishi

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2010	2011	2012	2013
Pensiya va ijtimoiy nafaka oluvchilar soni	177562	220430	284582	287691

Jamg'armaning hisob raqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi. Pensiya tayinlash va to'lash, shuningdek fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

³⁵ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi shahar bo'limi ma'lumotlari.

2.2.2.-jadval.

Toshkent shahar bo'yicha pensiya va nafaqa oluvchilarning harakati to'g'risida 2013 yil 1 yanvar holatiga tezkor ma'lumot³⁶.

kishi

	Pensiya turlari	2012 yil 1 yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni (kishi)	Umu miy soni	Jumladan					Qo'shim cha hujjat ga asosan qayta hisobland i	Umum iy soni	Jumladan				2013 yil 1 yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni (kishi)
				Yangi tayin	Yan gi ishlo vchi	Bosh qa hudud ga ko'chi b ketdi	Nogiron lik guruhi muddati tugadi	Boshqa turdagi pensiya ga o'tdi			Vafot etdi	Bosh qa hu dud ga ko' chib ket di	Nogiron lik guruhi muddati tugadi	Boshqa turda gi pensiya ga o'tdi	
1	Jami pensiya oluvchilar soni	284582	41871	14895	2587	3625	22924	427	212	38762	10653	3067	24717	325	287691
O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq pensiyalar															
2	Yoshga doir pensiya jami	236057	29129	12854	2537	2895	13052	328	130	22837	8609	2534	11561	133	242349
3	Ko'p bolali onalar	21417	1780	3	2	264	1513	-	4	1970	780	192	738	260	21227
4	54 yoshdan ayollar	73014	7353	4731	1176	706	1859	57	27	12705	1986	672	10045	2	67662
5	Ishsizga muddatidan oldin	8	995	2	-	16	668	309	2	114	36	10	64	4	889
6	1-sonli ro'yxat bo'yicha	1210	186	13	4	47	120	-	-	117	32	24	61	-	1279
7	2-sonli ro'yxat bo'yicha	3389	757	141	23	70	545	1	-	346	113	45	108	-	3800
8	3-sonli ro'yxat bo'yicha	8339	4165	359	105	1198	1740	868	4	623	362	95	163	3	11881
9	To'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya	4829	4619	3272	68	168	1112	67	27	1112	216	45	851	-	8336
10	Nogironlik	36178	8473	1160	50	509	6749	55	17	10795	1667	366	6607	155	33856

³⁶ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining (shahar bo'limi) ma'lumotlari.

	pensiyalari jami														
11	1-guruh ko'z kasalligi	1032	280	10	-	25	237	8	-	212	94	4	114	-	1100
12	1-guruh	2059	1284	85	-	100	1084	15	1	891	347	33	501	10	2452
13	2-guruh	28421	6563	1075	50	279	5170	39	16	7739	1223	264	6206	46	27245
14	3-guruh	5698	625	-	-	130	495	1	-	2165	97	69	1900	99	4159
15	Boquvchi sini yo'qotganlik jami	11170	3892	877	-	185	2792	38	64	4650	232	122	4269	27	10412
16	1 nafar oila a'zosiga	8237	2394	518	-	114	1725	37	45	2756	191	71	2480	14	7875
17	2 nafar oila a'zosiga	2234	1080	229	-	59	791	1	18	1439	40	43	1348	8	1875
18	3 nafar oila a'zosiga	699	418	120	-	12	286	-	1	455	1	8	441	5	662
Xarbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq pensiyalar															
19	Pensiya oluvchilarning soni	1177	377	4	-	36	331	6	1	480	145	45	280	10	1074
20	Nogironlar soni	932	346	2	-	33	305	6	1	416	145	45	280	10	1074
21	1-guruh	239	66	-	-	2	64	-	-	149	65	38	250	10	862
22	2-guruh	400	152	1	-	6	139	6	1	167	41	14	108	4	156
23	3-guruh	293	128	1	-	25	102	-	-	100	12	4	81	3	321
24	Boquvchi sini yo'qotganlik	245	21	2	-	3	26	-	-	64	27	7	30	-	212
25	1 nafar oila a'zosiga	240	23	1	-	3	19	-	-	60	27	6	27	-	203
26	2 nafar oila a'zosiga	3	6	-	-	-	6	-	-	4	-	6	3	-	5
27	3 nafar oila a'zosiga	2	2	1	-	-	1	-	-	-	-	-	-	-	4

Jadvalda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining shahar bo'limida 2010-2012 yillardagi pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar soni berilgan. Ma'lumotlar ko'rsatadiki, 2010-2013 yillarda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni yildan-yilga oshgan.

Jadvalda Toshkent shahar bo'yicha pensiya va nafaqa oluvchilarning harakati to'g'risida 2013 yil 1 yanvar holatiga tezkor ma'lumot tahlil kilingan (1-ilova). 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etiladi.

2.3. O'zbekistonda fuqarolarning pensiya ta'minotida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi

Axborot — biron voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot. Axborot olish kafolatlari va erkinligi — har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanligi. O'zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim to'lovidir³⁷. 1997 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, har bir fuqaro o'z manfaatlariga daxldor axborotlarni bepul, boshqa axborotlarni kelishuv bo'yicha haq to'lab olish imkoniyatiga ega.

³⁷O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2008. –B.8.

“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta‘minoti bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha:

- ➡ ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta‘minoti masalalari bo‘yicha xabardor qiladi;
- ➡ belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to‘lanishini tashkil etadi;
- ➡ imtiyozli pensiya ta‘minoti huquqini beradigan ishlab chiqarish, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;
- ➡ fuqarolarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi, fuqarolarni qabul qiladi.

Pensiya ta‘minoti sohasi faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, avvalambor inson omilining salbiy rolini cheklash Pensiya jamg‘armasi o‘z oldiga qo‘ygan ustivor vazifalardan biridir. Aynan shu maqsadda, eng avvalo, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma‘lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga keng joriy etish ishlari jadal olib borilmoqda.

Unifikasiyalashgan elektron ma‘lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida «Fido biznes» MChJ bilan hamkorlikda «Pensiya» dasturiy majmuasi ishlab chiqildi hamda bugungi kunda ushbu dasturiy ta‘minot respublikaning barcha mintaqalarida tatbiq etilmoqda. Ushbu dasturiy ta‘minotning amaliyotda keng joriy etilishi, sohada samaradorlikni oshirib, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to‘lanishida inson omilini kamaytirish

orqali jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan tezkor nazoratni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mazkur dasturning kelajakda idoralararo integrallashuvi sifatida, boshqa vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro axborot almashinuvini tashkil etiladi.

2012-2013 yillar davomida tegishli vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasiga bog'lanish hamda ushbu dasturlar bilan o'zaro axborot almashinuv yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining «KIGB-4» dasturi:

- ⇒ Jamg'arma daromad va xarajatlarning shakllanishini tasniflash va uning turlari bo'yicha taqsimotini ta'minlash;
- ⇒ barcha bo'g'inlarda xarajatlarni amalga oshirish, (pensiya va nafaqalar to'lovlarini moliyalashtirish), shu maqsadda elektron to'lov topshiriqnomalarini on-line rejimida taqdim etib borish;
- ⇒ Jamg'arma mablag'lari sarfining tezkor monitoringini olib borish va hisobotlarni yuritish;

«O'zbekiston pochta» OAJ dasturi:

- pensiya va nafaqalarni to'lovi bo'yicha oylik elektron to'lov ro'yxatlarini shakllantirish va on-line rejimida taqdim etib borish;
- oylik joriy pensiya va nafaqalar to'lovi yakunlari bo'yicha elektron solishtirma dalolatnomalarni shakllantirish;
- hududlar kesimida to'lov qoldiqlari bo'yicha kunlik tezkor ma'lumotlarni olish.

DT Xalq banki va tijorat banklari dasturlari:

- tijorat banklari tomonidan plastik kartochka orqali to'lab beriladigan pensiya va nafaqalar bo'yicha oylik elektron to'lov ro'yxatlarini shakllantirish, solishtirish va ularni taqdim etib borish;
- hududlar kesimida to'lov qoldiqlari hamda to'langan mablag'lar miqdori bo'yicha ma'lumotlar olish;

- pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolar bo'yicha ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'lariga amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumot almashish;
- pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari bo'yicha olingan ma'lumotlar bilan fuqaroning jamg'armaga taqdim etgan (ish staji va ish haqi to'g'risidagi) ma'lumotlarni solishtirib borish.

Davlat soliq qo'mitasi dasturi:

- yuridik shaxslar jamg'armaga o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmagan tashkilotlar bo'yicha va ularning tushgan pullari to'g'risida ma'lumotlar olish;
- fuqarolarning jamg'armaga taqdim etgan (ish staji va ish haqi to'g'risidagi) ma'lumotlarni oylik ish haqlari ma'lumotlari bilan solishtirib borish.

Davlat statistika qo'mitasi dasturi: korxonalar to'g'risida ma'lumotlar olish hamda oylik, choraklik va yillik hisobotlarni elektron tarzda yuborish. Dasturning qo'shimcha jozibador ta'rifi sifatida uning yaqin kelajakda elektron ma'lumot servis xizmatini amalga oshira olishini qayd etish lozim.

Mazkur turdagi informasion-interaktiv xizmatlar turlari ro'yxatiga quyidagilarni qo'shish mumkin:

- ✓ pensiya oluvchilarga ularning pensiya miqdorlari o'zgarishi xususidagi ma'lumotlarni mobil telefonlariga SMS ko'rinishida yuborish;
- ✓ fuqarolarga ularning hisoblangan pensiya miqdorlari xususidagi ma'lumotlarni elek-tron pochталari orqali kuzatib borish imkoniyatini berish;
- ✓ fuqarolar tomonidan o'zlarining pensiya miqdorlarini masofadan turib (pension kalkulyator) jamg'armaning veb-saytida hisoblash imkoniyatini ta'minlash;
- ✓ pensiya ta'minoti qonunchiligiga doir yangiliklar va o'zgarishlarni fuqarolarning elektron pochталariga tarqatish;

- ✓ fuqarolar murojaatlarini o'rganib chiqadigan, doimiy avtomatik ravishda faoliyat yurituvchi ishonch va shoshilinch telefonlarini ishga tushirish.

Tizim faoliyatiga zamonaviy veb-texnologiyalarni joriy etilishining mantiqiy davomi bo'lib, pensiya jamg'armasi tizimida tezkor elektron hujjat almashinuvi va kadrlar majmui bo'yicha — WSP «Personal» dasturiy ta'minoti ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishini ta'kidlash mumkin. WSP «Personal» dasturiy ta'minoti – tizimda faoliyat ko'rsatuvchi barcha mutaxassis xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning umumlashtirilgan bazasi bo'lib, bunda joylardagi kadrlar sifat tarkibini tezkor nazorat qilish, tahlil qilish va tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoni mavjud.

Shu bilan birga, mazkur dasturning yuqoridagi imkoniyatlaridan tashqari, uning tarkibida xodimlar malakasini oshirib borish uchun pensiya qonunchiligiga doir normativ-huquqiy hujjatlarning, idoraviy me'yoriy qo'llanmalarning elektron bazasi shakllantirilgan. Shuningdek, qog'oz sarfini kamaytirish maqsadida avtomatlashtirilgan elektron hujjat aylanishi dasturi tizim faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda, bunda yuqori idoralardan yoki to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan barcha hujjatlarni, fuqarolarning murojaatlarini markazlashgan avtomatlashtirilgan tizim orqali quyi bo'g'inlarga yetkazish, ijrosini nazoratga olish, tegishli javoblar olingan hujjatlarni nazoratdan chiqarish asosida monitoring o'rnatilganligini alohida qayd etish lozim.

Fuqarolarga pensiya tayinlash uchun murojaat etgan shaxsning boshqa hududda mehnat faoliyati yuritgan davrini aniqlash uchun, jamg'armaning xududiy bo'linmalari o'rtasida o'zaro so'rov xatlarini yuborish, murojaatga to'laqonli va haqqoniy javob olish hamda ushbu jarayon ustidan tegishli nazorat mexanizmini nazarda tutadigan «So'rov» moduli — WSP «Personal» dasturining qo'shimcha funksionali hisoblanadi. Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar aybi bilan mehnatda mayiblanish tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalariga sarflangan mablag'larni qoplash yuzasidan regress da'volari hisobini yuritish, undirilishi lozim bo'lgan mablag'lar hamda ularning qoldiqlari bo'yicha yagona

integrallashgan ma'lumotlar bazasi yaratilmoqda. Bu ham, o'z navbatida, jamg'arma daromadlarining bir turdagi manbaini to'la-to'kis shakllantirishda aniq tahliliy hisobotlarga va tezkor ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Tizimni zamonaviy axborot texnologiyalari talablariga muvofiq texnik qurollantirish zaruriyati, yuqorida zikr etilgan sa'y-harakatlarni izchil davom ettirishning asosiy omilidir.

Ayni shu maqsadda, bugungi kunda ijro etuvchi apparat tomonidan kommunikasion uskunalar chet eldan keltirilib, hududiy bo'linmalar to'liq ta'minlandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida sohani zamonaviy axborot va kommunikasiya asbob-uskunalar, texnologiyalari bilan texnik jihatdan qurollantirish darajasi 2010 yildagi 28,5 foiz o'rniga, bugungi kunga kelib 91 foizga yetdi. Bu ko'rsatkichni joriy yilning birinchi yarim yilligida 100 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va hududlarda ularning tuzilmalari tashkil etilib, O'zbekistonda fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti sohasida yagona elektron baza tizimi yaratilib, soha faoliyati takomillashib borayotganligi, jamg'armaning xududiy bo'limlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan texnik jihozlash darajasini keskin oshishi, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilishni, ularning turmush darajasi va hayot sifatini oshirish zarurligi hamda ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda qonunchilik bazasining takomillashib borishi, shuningdek, ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish hamda mamlakatimizda bu qatlam vakillarini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyat kasb etpdi.

Pensiya ta'minotida zamonaviy komp'yuter texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi - pensiya ta'minotining turli jarayonlarida axborotlarga bo'lgan talabni qondirish, davlat miqyosida moliyaviy axborotlarni qayta ishlashning yangi axborot tizimini yaratish natijasida moliyaviy resurslarni boshqarishni tubdan o'zgartirishga qaratildi.

II bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida birinchi bob yuzsidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1.Davlat moliyasi rivojlangan mamlakatlar YaIM ning katta qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Yaponiyada - $\frac{1}{3}$, Fransiya, Niderlandiya, Norvegiyada- $\frac{1}{2}$, Shvesiyada- $\frac{2}{3}$, Rossiyada- $\frac{1}{3}$. Respublikamizda ham davlat moliyasining asosiy daromadlari va shunga mos ravishda xarajatlarini aynan davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi, qolgan qismi esa byudjetdan tashqari fondlar va davlat maqsadli jamg'armalari hissasiga to'g'ri keladi.

2.Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari davlat maqsadli jamgarmalari tarkibida salmoqli o'rinn egallaydi, jamg'arma mablag'lari bilan ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga e'tibor qaratiladi.

3.Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimiga:

- Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

4.Respublikamizda yaratilayotgan YaIMga nisbatan soliq to'lovlari va davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlar miqdori nisbati unchalik katta ko'rsatkichni tashkil etmaydi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga tushadigan mablag'lar uchun to'lov stavkasi 2006-2008 yillarda 23,5 foizni tashkil etdi, 2009 yilda 23,6 foizga teng bo'ldi, 2010-2013 yilda 24,8 foiz o'zgarmadi.

5.Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm rejalashtirildi. Ish haqidan yagona to'lov salmoqli o'ringa ega. Daromadlar tarkibida ish haqidan yagona to'lov 2011 yilda 3903,4 mlrd.so'mni (63,5 foiz) tashkil etdi, 2012 yilda 4799,2 mlrd.so'mga (60,0 foiz) ko'tarildi, 2013 yilda 5907,4 mlrd.so'm

(57,3foiz) rejalashtirildi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2011 yilda 6144,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, 2012 yilda 8064,5 mlrd.so'mga ko'tarildi, 2013 yilda 10302,1 mlrd.so'm belgilandi. Jamg'arma mablag'laridan ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar xarajatlari 2011 yilda 5862,7 mlrd.so'mni (95,4 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 7246,0 mlrd.so'm (89,9 foiz)ga ko'tarildi, 2013 yilda 9097,6 mlrd.so'm (88,3 foiz) rejalashtirildi.

6.Pensiyalarni qayta hisoblash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish staji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;
- nogironlik guruhi o'zgarganda;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda;
- eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda;
- daromadlar indeksasiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

7.Pensiya ta'minoti sohasi faoliyatini texnik modernizasiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, inson omilining salbiy rolini cheklash Pensiya jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ustivor vazifalardan biridir. Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga keng joriy etildi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERENEZATSIYALASH SHAROITIDA

PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

3.1. Pensiya tizimini moliyalashtirishning xorijiy tajribalardan

O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari

Jahon tajribasida keksalar ta'minotini moliyalashtirish va boshqarish mexanizmining uch xil turi ko'p uchraydi³⁸.

1. Barcha mamlakatlarda keng tarqalgan joriy tushumlardan moliyalashtiriladigan davlat transfert dasturlarini amalga oshirish.
2. Ixtiyoriy va majburiy shaxsiy jamg'arma rejalarini amalga oshirish.
3. Iqtisodiy inqirozdan, inflyatsiyadan, jamg'armalarni yo'qotishga va qadrsizlanishga olib keladigan investitsion risklardan himoya qiladigan sug'urta tizimini rivojlantirishdan iborat.

Xorijiy tajribalar guvohlik beradiki, keksalarni moddiy ta'minlash dasturlarini bajarishga imkon yaratuvchi kuchli moliyaviy va boshqaruv mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Ko'pgina davlatlar bir qator pensiya islohotlarini amalga oshirdilar. Chexiyada pensiya bilan ta'minlashni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari - zararli va og'ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug'urta qilingan badallariga qo'shimcha badallarni kiritish, to'langan badallar va olingan pensiyalar o'rtasida aloqani kuchaytirish, ko'p rejali ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish, individual pensiya rejalarini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirishdan iborat.

Quyidagi jadvalda xorijiy davlatlarda pensiya yoshining chegalari va pensiya badallarining miqdori ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlarda pensiyaga chiqish yoshi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida derli farqlar yo'q, fondlarga pensiya badallarini to'lashda og'irlik ish beruvchi va ishlovchi (xodim)ga teng barobar taqsimlangan.

³⁸Kosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2008. – B.89.

3.1.1.-jadval.

Xorijiy davlatlarda pensiya yoshi va pensiya badali miqdori³⁹.

Mamlakatlar	Pensiya yoshi		Pensiya badali miqdori (ish haqidan Foizda)	
	Erkaklar	Ayollar	Ish beruvch i	Ishlovchi
Buyuk Britaniya	60	60	10	10
Germaniya	65	65	10-15	10-15
AQSh	65	65	6,2	6,2
Fransiya	60	60	9,8	6,2
O'zbekiston	60	55	24,8	6

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «...Yurtimizda o'tgan yillar davomida... pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o'sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig'idir»⁴⁰. Qozog'istonda va Belarussiyada 2011 yilda o'rtacha pensianing miqdori tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni tashkil etdi. Pensionerlar ayniqsa kam ta'minlangan va himoyalangan hayotning doimiy qimmatlashuvidan boshqalarga nisbatan ko'proq jabrlanadigan aholi guruhlaridan biriga aylandi. Pensianing xaridorlik qobiliyati doimiy ravishda pasayib bormoqda. Hamdo'stlik mamlakatlarida kam ta'minlangan aholining aksariyat qismini aynan pensionerlar tashkil etadi. Pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligiga MDX barcha mamlakatlarida kuzatilayotgan qoniqarsiz demografik vaziyat, aholining keksayib borishi, iqtisodiy band aholiga nisbatan pensionerlar ulushi doimiy ko'payib, pensioner va ishlovchi shaxslar soni o'rtasidagi o'zaro nisbat, bugungi vaqtda iqtisodiy taraqqiyot etgan mamlakatlarga qaraganda past bo'lsada, yanada qisqarib borishi kuchli ta'sir etmoqda. Islohotlar jarayonida pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining

³⁹World Popjlation Ageing 1950-2050. NY.2009. –P.34

⁴⁰ Karimov I.A. 2012 yil Vatanimz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi. 20.01.2012.

moliyaviy mustahkamlanishini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda ishchilar o'zining pensiyasini shakllantirishdan manfaatdorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Hozirgi kunda Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarida keng foydalanilayotgan ijtimoiy siyosatning uch modelini: liberal, sosial-demokratik, koorparativ modelini ko'rsatadi⁴¹.

Jahonda keng e'tirof etilgan G.Esping-Andersen tasnifi ijtimoiy himoyaga nisbatan jahonda mavjud yondoshuvlardagi jiddiy farqlar to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Muallif⁴² davlatlarning uch asosiy modeli : liberal; konservativ; sosial-demokratik modellarini bir-biridan farqlaydi.

AQSh Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarga xos bo'lgan liberal modelning shakllanishi xususiy mulk hukm surgan, bozor munosabatlari yetakchilik qilgan sharoitda liberal mehnat axloqi ta'sirida amalga oshgan. Bu model faoliyatining asosiy shartlari quyidagilardir:

- ➡ davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarining kam qo'llanishi;
- ➡ YaIM da davlat sektori ulushining kamligi.

Konservativ (kooporativ) model ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xosdir. Bular jamlasiga Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda davlat mavqei ancha kuchli, ijtimoiy tadbirlarga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallariga taxminan teng. Qayta taqsimlashning asosiy kanallari davlat ixtiyorida yoki davlatning nazorati ostida bo'ladi. Ayni paytda davlat fuqarolarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasini sug'urta ximoyasi tizimiga topshirishga harakat qiladi. Shu tufayli ijtimoiy nafaqalar miqdori mehnatdan olingan daromadlarga va tegishli ravishda sug'urta to'lovlariga qilingan ajratmalarning miqdorlariga

⁴¹Kadomseva S.V. Gosudarstvennye finansy. Uchebnoe posobie.- M.: «INFRA -M». 2010. B.7.

⁴²Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Adolat". 2009. -B.108..

bog'liq bo'ladi. Korxonalarining egalari hamda yollanma xodimlarning manfaatlarini ifoda etuvchi nufuzli kasaba uyushmalari birgalikda boshqaradigan sug'urta kassalarining «o'zini-o'zi boshqarishi» mazkur modelning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ishsizlik yuz bergan holda kafolatlangan to'lovlar miqdori mehnat stajiga, to'lovlar muddati esa sug'urta badallarini to'lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq. Ko'pgina mamlakatlarda ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash davri 50 yoshdan katta shaxslar uchun oshirilgan.

Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash rivojlangan sug'urta tizimlari hisobidan amalga oshiriladi, u asosan muayyan kafolatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadi. Sug'urta to'lovlarining miqdori uncha katta bo'lmaydi. Transfert to'lovlari, ya'ni davlat byudjetidan aholining xar xil guruhlariga nafaqalar va subsidiyalar tarzida bevosita o'tkaziladigan soliqlardan olingan moliyaviy mablag'lar miqdori ham ko'p emas.

Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida tadbirkorlik faolligining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Korxonalar egalarining ishlab chiqarishni rivojlantirish va unda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jumladan, keraksiz bo'lib qolgan xodimlarni ishdan bo'shatish huquqlari biron-bir tarzda cheklanmaydi. Bunday holatning o'ta liberal shakli AQSh davlatiga xos, 1948 yildan bu davlatda amal qilayotgan «Mehnat bitimlari to'g'risida»gi qonun yoki «Vagner qonuni»ga binoan, korxonalar ma'muriyati ishlab chiqarish qisqargan yoki modernizatsiya qilingan holda, xodimlarni ogohlantirmasdan yoki ikki-uch kun oldin ogohlantirish yo'li bilan mehnat staji va malakasini hisobga olmasdan bo'shatishga haqli. Bu model iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sharoitida o'zining asosiy vazifasini bajaradi, biroq ishlab chiqarish pasaygan va majburiy qisqartirilgan, ijtimoiy dasturlarning aksariat qismidan voz kechilgan sharoitda ko'pgina ijtimoiy guruhlar, avvalo xotin-qizlar, yoshlar va qariyalar og'ir ahvolga tushib qoladi.

Sotsial-demokratik model – aholini himoya qilishda davlat yetakchi rol o'ynashini nazarda tutadi. Axolining daromadlari darajasini tenglashtirish va aholini to'liq ish bilan ta'minlash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bu model Shimoliy Evropa mamlakatlari – Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya va Shvesariyada o'zining amaliy ifodasini topgan.

Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori ijtimoiy sohasini moliyalashtirish negizi bo'lib xizmat qiladi. Bu negizni mustahkamlashga soliq solish darajasi juda yuqori ekanligi ham ko'maklashadi. YaIMda davlat xarajatlarining ulushi Shvetsiyada 66%, Daniyada 61 %, Finlyandiyada 56 %ni tashkil etadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Bu xarajatlar orasida pensiyalarning ulushi xam ancha katta, ularning yordamida milliy mahsulotni aholining kam ta'minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Ushbu modelning boshqa o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ↳ ishlab chiqarish demokratiyasining rivojlangan tizimi;
- ↳ mehnat munosabatlari ayrim korxonalar yoki tarmoqlar darajasida emas, balki umummilliy miqyosda tartibga solinishi;
- ↳ ishsizlik darajasini mumkin qadar kamaytirishga imkoniyat yaratadigan ta'sirchan vositalardan foydalanilishi.

Sotsial davlatning ko'pincha elitar deb ataladigan shved doktrinasini ayniqsa keng nom chiqardi. Shved doktrinasiga ko'ra davlat tomonidan o'z fuqarolariga g'amxo'rlik ko'rsatish vazifasi yuqoriga ko'tarilgan. Davlat tomonidan fuqarolarga tahdidli vaziyatlarda xavfsizlik, ishonchlilik va ijtimoiy himoya tashkil etiladi va boshqariladi. Shvedlar uchun o'z qarindoshlariga yordam berish yoki xayriya qilish bozor mexanizmida zaruriyat tug'dirmaydi.

Shu darajada katta maqsadlarni amalga oshirish uchun Shvesiyada 1977 yilda ijtimoiy idorani qayta tashkil etish ishlari o'tkazildi. Ijtimoiy xizmatning g'oyat keng, yetarlicha aniq va tushunarli vazifalari ta'riflandi. Bular ichida

daromadni kafolatlash yuzasidan to'rtta eng asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: atrof muhitni saqlash, ijtimoiy xizmatlarga tegishli chora-tadbirlar, fuqarolarni parvarishlash (sog'liqni saqlash) va mehnat muhitini himoya qilish. Ko'rsatilgan yo'nalishlardan har biri uchun aniq ijtimoiy institut javob beradi. Ta'kidlangan har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat yetarlicha ijobiy natijalarga olib keldi. Ayniqsa, buning yorqin misoli sifatida mevalari sezilarli bo'lgan «umumiy ish haqi siyosati» xizmat qilishi mumkin. Bu siyosat Shvetsiyaning o'zida ham, boshqa xorijiy davlatlarda ham turlicha baholandi. Dastlab kasaba uyushmalari tomonidan joriy etilgan bu siyosat asosiy maqsad sifatida bir xil kasbiy tayyorgarlik saviyasiga ega bo'lgan lekin iqtisodiyotning turli sektorlarida, ya'ni davlat va xususiy sektorda band bo'lgan ishchilarning ish haqidagi farqlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan. Bu borada kasaba uyushmalari tadbirkorlar uyushmasi bilan ish haqi miqdori yuzasidan qizg'in muzokalarini olib bordilar, natijada ish haqi darajasini deyarli to'liq tenglashtirishga erishildi. Lekin so'nggi vaqtlarda mutaxassislar tomonidan ishchilarning ma'lumot va malaka darajasi, ularning shaxsiy fazilatlarini hisobga olmaymagan holda taqsimlash siyosati keskin tanqid qilinmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lgan uchta modeldan hech biri hech bir davlatning ijtimoiy himoya tizimining mukammal turi sifatida sof ko'rinishida uchramaydi. Amalda liberal, korporativ va ijtimoiy demokratik modellarning uyg'unlashuvini kuzatish mumkin, bunda ulardan bittasining o'ziga xos tomonlari ustunlik qiladi. Misol uchun Kanada sug'urta nafaqasi bilan bir qatorda «Xalq pensiyasi» deb atalgan pensiya mavjud. Shu kabi pensiya Avstraliyada ham joriy etilgan.

AQShda ijtimoiy sug'urta kassalaridan tashqari to'lanadigan turli-tuman pensiyalar mavjud. Bunda 100 tadan ko'p moddiy yordam dasturlari amal qiladi, bu dasturlar miqyosi, mablag' bilan ta'minlanish manbalari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Mazkur dasturlar Federal vazirliklar (Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, Qishloq xo'jaligi, Mehnat uy-joy qurilishi va shaxar

rivojlanishi, Ichki ishlar vazirliklari) ko'magida hamda «Faxriylarning ishlari bo'yicha boshqarma», «Temir yo'lchilarning pensiya ta'minoti bo'yicha Uyushma» va «Fuqarolik xizmati Komissiyasi» ko'magida amalga oshiriladi. Shu bilan birga ko'pgina ijtimoiy dasturlar alohida, muvofiqlashtirilgan va uyushgan tizimni tashkil etmagan holda amalga oshiriladi.

“XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarning milliy pensiya ta'minoti tizimida taqsimlash mexanizmiga asoslangan davlat pensiyalari asosiy rol o'ynaydi. Aholini demografik qarishini baholash uchun turli koeffisientlardan foydalaniladi. BMT ning nashrlarida fuqarolar uchun keksalik 65 yosh ko'rsatildi, 60 yosh va ulardan kattalarni sanaladi. Pensiya ta'minotini moliyalashtirish masalalari aholining yosh tarkibini o'zgarish dinamikasi va aholining demografik qarishi muammolariga bog'liq”⁴³.

Quyidagi jadvalda xorijiy davlatlarda pensiya tizimining tarkibiy tuzilishi berilgan.

Birinchi shakl - belgilangan to'lovlar – pensiya sug'urtasini ta'minlashning keng tarqalgan shakli bo'lib, pensiya tushumlarining hajmi fuqaroning ishlagan ish stajiga va uning mehnat faoliyatidagi alohida hisoblangan ish haqisiga bog'liq. Hozirgi kunda Shvesiya, Shveysariya, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Daniya, Kanda, Lyuksemburg, Portugaliya, AQSh, Turkiya, Urugvay, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya kabi 32 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan.

Ikkinchi shakl - belgilangan vzoslar – har bir xodimning personal xisobraqami mavjudligini bildiradi, unda mablag'lar yig'ilishi va saqlanishi bilan xarakterlanadi. Pensiya yoshiga yetganda, xodim pensiyaga chiqqanda yig'ilgan kapital pensiya daromadiga aylanadi.

42. Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. -М.: Российский университет дружбы народов. 2008. –С.6.

*Xorijiy davlatlarda pensiya tizimining tarkibiy tuzilishi*⁴⁴.

Pensiyaning sug'urta qismi	Pensiyaning taqsimlanadigan qismi		
	Maqsadli pensiya	Boshlang'ich pensiya	Minimal pensiya
Belgilangan to'lovlar	Shvetsiya, Shveysariya, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Daniya, Kanda, Lyuksemburg, Portugaliya, AQSh, Turkiya, Urugvay, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya.	Buyuk Britaniya, Kanada, Koreya, Litva, Lyuksemburg, Niderlandiya, Chexiya, Estoniya, Yaponiya	Aljir, Belgiya, Bolgariya Buyuk Britaniya, Vengriya, Gresiya, Egipt, Iordaniya, Eron, Ispaniya, Liviya, Lyuksesburug, Portugaliya, Tunis, Turkiya, Chexiya, Shveysariya
Belgilangan vzoslar	Avstraliya, Bolgariya, Daniya, Kolumbiya, Meksika, Peru, Sal'vador, Urugvay, Chili, Shvesiya	Daniya, Argentina, Litva, Xorvatiya, Estoniya	Bolgariya, Vengriya, Latviya, Pol'sha
Pension ballar tizimi	Germagiya, Norvegiya, Fransiya	Xorvatiya, Estoniya	Fransiya, Slovakiya
Shartli-jamg'ariladigan hisobraqam	Italiya, Shvesiya		Latviya, Pol'sha
Belgilangan kredit	Shveysariya		Shveysariya

⁴⁴Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. -М.: Российский университет дружбы народов. 2008. – С.16.

Bu mablag'lar belgilangan shartlar asosida pensiya sug'urtasini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Mazkur shakl Avstraliya, Bolgariya, Daniya, Kolumbiya, Meksika, Peru, Sal'vador, Urugvay, Chili, Shvesiya kabi 19 ta davlatlarda joriy etilgan.

Uchinchi shakl - pension ballar tizimidir. Mazkur tizimning mazmuni shundan iboratki, xodim individual ish haqiga bog'liq holda, pension ballarni qo'lga kiritadi. Xodimning pensiyaga chiqish vaqtida pensiya summasi pension ballarga ko'paytiriladi va doimiy pensiya to'lovlari shakllantiriladi.

To'rtinchi shakl - shartli-jamg'ariladigan hisobraqam - bu tizimda har bir xodimning ajratmalari uning individual schyotida saqlanadi va bu mablag'lar foyda keltiradi. Hisob raqamlarga tushumlar va ularga xisoblangan foizlar boshqaruv institutlarining kitoblarida yuritilganligi uchun shartli deb ataladi. Mazkur tizim Italiya, Latviya, Polsha, Shvetsiyada joriy qilingan. Beshinchi shakl - belgilangan kredit – Shveysariyadagi fuqarolarning professional yo'nalishdagi majburiy ajratmalaridir. Ish beruvchilar va ishlovchilar yoshga bog'liq holda belgilangan normadagi ajratlarni to'lashlari shart.

Pol'shada 1994 yilda turli xil mutaxassislikda ishlayotgan shaxslar tomonidan olinadigan pensiyalar miqdoridagi farqlarni bekor qilishni ko'zda tutuvchi pensiyalarning yangi formulasi joriy etildi. Daromadlar asosini hisoblayotganda ishlatiladigan ish staji oshirildi, maksimal pensiya miqdori kamaytirildi. Ruminiyada erta pensiyaga chiqishni ko'zda tutadigan mutaxassisliklar bo'yicha ishlayotgan shaxslarning badal stavkasi oshirildi. Bolgariyada ham yilda erta pensiyaga chiqish xuquqini beradigan shaxslar uchun badal stavkasi, 1992 yilda pensiyaga chiqishning minimal yoshi oshirildi. Erta pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan ishchilar soni qisqartirildiki, ushbu tadbirlar orqali pensiya yoshidagi kishilar ham ishlashni davom ettirdi. Vengriyada 1992 yilda badallarning eng yuqori chegarasi belgilandi, badallar kiritiladigan minimal muddat oshirildi. Pensiyalarni indeksasiya qilish tizimi o'zgartirildi va ijtimoiy sug'urtaning mustaqil fondi tashkil etildi.

Litvada pensiya yoshi oshirilmasa, «2025 yilda 10 ta badal to'lovchiga 8 pensioner, 2050 yilda 11 pensioner to'g'ri keladi. Pensiyaga chiqish 65 yoshgacha oshirilsa, 2025 yilda 10 to'lovchiga 7 pensioner, 2050 yilda 9 pensioner to'g'ri keladi. Ayollar va erkaklarning pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish Evropa Hamkorligining talabiga rioya qilishgina emas, mamlakatda «gender tengligi»ni ta'minlash va davlat pensiya ta'minoti tizimini moliyalashtirish og'irligini kamaytirish imkonini beradi» qarilik (1889y) bo'yicha ta'minotlarni o'z ichiga oldi⁴⁵.

Oxirgi o'n yillik davr davomida Xamdo'stlik davlatlarining pensiya ta'minoti sohasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Pensiya to'g'risida milliy qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Davlat nafaqa tizimining sug'urta tamoyillariga o'tishi amalga oshirildi. MDX mamlakatlarida o'zining moliyaviy asosi bo'lgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armalariga tayanadigan yangi pensiya tizimlari yaratildi. Mahsulotlar qimmatlashi, narxlar oshishi munosabati bilan pensiyalar miqdorini indeksasiyalash doimiy ravishda amalga oshiriladi. Sug'urta qilingan shaxslarni yakka tartibda hisobga olish amaliyoti joriy etildi. Qator mamlakatlarda pensiyalar miqdorini har bir ishchining mehnat hissasiga imkon qadar uzviy bog'lashga harakat qilindi va bu maqsadda pensiyalar hisoblash tartibi o'zgartirildi. Pensiya tizimi asosiy ijtimoiy vazifasini, ya'ni mehnat qilishga layoqatsizlik sababli yo'qotilgan daromad miqdorini maqbul darajagacha tiklash yo'li bilan muxtojlikni kamaytirish va qashshoqlikni oldini olish vazifasini bajarmoqda.

3.2. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini rivojlantirish yo'llari

“O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarining barqarorligini ta'minlash va pensiya to'lovlarini belgilangan muddatlarda moliyalashtirish vazifasi ham ijobiy hal

⁴⁵Аудрюс Б. Причины реформ пенсионной системы современной Литвы. // Социальный вестник. - Москва. 2007. №5. -С.13.

etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda Qarori bilan tasdiqlangan jamg'armaning 2011 yil uchun belgilangan daromadlari prognoz ko'rsatkichlari 100,5 foiz bajarilishiga erishildi"⁴⁶. Natijada, yil yakuni bo'yicha jamg'arma xarajatlarini qoplab, ortiqcha tushirilgan soliq tushumlari aylanma mablag'lar hajmini 36,5 foizga ko'paytirdi yoki oylik joriy xarajatning 70 foizini qoplashga yetarli zaxira mablag'lari shakllantirildi. Ayni shu maromda joriy yilning birinchi choragi bo'yicha Pensiya jamg'armasining daromad ko'rsatkichlari ortig'i bilan bajarilishiga erishildi hamda pensiyalarning o'z muddatlarida to'liq moliyalashtirilishi ta'minlandi. Pensiya jamg'armasi tomonidan uzoq muddatli makroiqtisodiy va demografik parametrlar istiqbollari asosida ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlar asosida 2013 yilda Jamg'armani daromadlari uning xarajatlariga nisbatdan yanada yuqori bo'lishi tahmin qilmoqda. Bu esa, kelgusida jamg'arma moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishidan dalolat beradi.

Respublikamizda ijtimoiy himoyalash tizimini joriy qilish, pensiya ta'minoti tizimining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramasdan pensiya ta'minoti sohasini rivojlantirishda muammolar hal qilinishi zarur. Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, 1993 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga bir kator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Yangi Qonun O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 100-moddasi (Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish bunda qonunchilikka muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo'lganda" so'zlari) bilan to'ldirildi.

Bundan maqsad – mamlakatimizda jadal joriy etilayotgan va alohida tayyorgarlikni talab etadigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko'nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya

⁴⁶Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. – B12.

oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalarining mos kelishini ta'minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitlarini yaratishdan iborat. Bunda pensiya yoshiga yetgan xodimlarning mehnat qilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratish, zarur hollarda ularni yengilroq vazifalarga o'tkazish, shuningdek, mehnatga oid munosabatlarni boshqarishni takomillashtirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2012 yil 6 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalarda ijtimoiy mo'ljalning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'tgan yillardagi ish haqilarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi "Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan qayta hisoblashning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Pensiya ta'minoti qonunchiligimizga kiritilgan mazkur o'zgartishlar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti masalalarini hamda mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mosligini ta'minlash, pirovardida pensiya ta'minotida ijtimoiy adolat prinsiplarini kuchaytirish, yuqori ish haqi olib ishlagan fuqarolarga mutanosib miqdorda pensiyalar tayinlash imkoniyatlarini yaratish va pensiyalar miqdorini ustuvor tarzda oshirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ta'kidlangan muhim masalaga e'tiborni kuchaytirish lozim. Mamlakatimizning qay bir mintakasi bo'lishidan, uning iqtisodiy resurslar va salohiyatga qanchalik boyligidan qat'iy nazar, ushbu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi farovonligi va turmush darajasini yuksaltirish maqsadida barcha kuchlarni safarbar etish lozim. Ayniqsa, viloyat va tuman rahbarlari ushbu kuchlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishlari, ularni o'zaro uyg'un holda jamiyat manfaatlari ostida birlashtirishlari lozim. Respublikamizda aholini turmush darajasini oshirish,

pensiya tizimi sohasini rivojlantirish ishlari yanada takomillashtirilmoqda. Mamlakatimiz qonunchiligida aholining huquq va manfaatlarini himoyalashni mustahkamlashga qaratilgan qator imtiyozlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining ayrim moddalariga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasi ham nazarda tutilgan. Ta'kidlash joizki, qonunda ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarga qonuniy imtiyozlar yaratish alohida e'tiborga olingan. Xususan, ekologiya falokati mintaqasida ishlaganlarga imtiyozli pensiya tayinlash huquqi 1993 yil 3 sentabrdagi qonun bilan joriy qilingan, Chernobil atom elektr stansiyasida yuz bergan halokat asos sifatida olingan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolarga imtiyozli pensiya tayinlash normasi faqat O'zbekiston Respublikasi pensiya qonunchiligida mavjud. Boshqa biror bir davlat qonunchiligida bunday me'yor nazarda tutilmagan. Shularni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 9- moddasiga o'zgartish kiritildi.

Ijtimoiy himoya tizimiga oid huquqiy asoslarning takomillashtirilishi ijtimoiy sohaga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar samaradorligining oshishiga xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan pirovard maqsad ham fuqarolar manfaatlarini yanada kengroq himoya qilish va xalq farovonligini oshirishdir. 2010 yil 23 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni ham shunday maqsadga yo'naltirilgan. Ijtimoiy siyosatning adolat tamoyillaridan kelib chiqib, pensiya ta'minotini amalga oshirishda huquqiy asoslarini zamon talablariga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun ham pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajriba hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishda fuqarolarning qo'shgan shaxsiy hissasi bilan tayinlangan pensiyalar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashdan iborat. Mazkur qonunga muvofiq, pensiyalarni qayta hisoblanadi. Mintakalarda yashovchi

pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin. Ayni paytda, amaldagi pensiya ta'minoti qonunchiligiga kiritilgan mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar aholining bandligi va farovonligini yanada oshirishda muhim omil bo'lishini ham alohida ta'kidlash lozim.

O'z navbatida bularni amalga oshirish uchun moliyaviy iqtisodiy barqarorlik, jamg'arma institutlarini tashkil qilishni o'z ichiga olgan fond bozorlarining rivojlanishi va unga muvofiq keluvchi qonunchilik asoslarini yaratish, aholi jamg'armalarini rag'batlantiruvchi samarali soliq siyosatini yuritish, aholining moliyaviy muassasalarga bo'lgan ishonchini ta'minlovchi davlat boshqaruv tizimi zarur.

Pensiya yoshiga yetib mehnat faoliyatini davom ettirayotgan fuqarolar manfaatlarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi, fuqarolarga qarilik chog'ida tayinlanadigan davlat pensiyalariga qo'shimcha jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining roli alohida ta'kidlandi. Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-maslahat komissiyalari faoliyatini xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, bunda 16 yoshgacha va undan yuqori yoshdagi fuqarolarning nogironlik holatini belgilash tamoyillarini qayta ko'rib chiqish va amalga oshirish tartibini muvofiqlashtirish masalalari takomillashtirish kerak. O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimida vujudga kelayotgan muammolar pensiya tizimini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi.

III bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotlar natijasida uchinchi bob yuzsidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1.XIX asrning oxiri va XX asrning boshidagacha bo'lgan davrni pensiya tizimi rivojlanishining birinchi bosqichi deyish mumkin. Dastlabki pensiya jamg'armalari

sug'urta badallari ko'rinishida shakllangan. Ishlovchining sug'urta badallarini to'lash imkoniyati uning bu tizimda ishtirok etishini ta'minlab bergan. Shu tufayli unda ishtirok etish faqat ishlaydigan erkaklar va ularning oila a'zolari bilan chegaralangan. Shunday qilib, pensiya olish huquqi sug'urtalangan shaxsning badallar to'lashining aniq shartlari bilan uzviy bog'langan holda tizimning qamrab olish sohasi cheklangan bo'lib, to'lanadigan pensiya miqdori yuqori bo'lmagan. Birinchi bosqichning muhim jihati, o'zaro yordam va fuqarolarga tibbiy xizmat ko'rsatilishi bo'ldi. Tarixiy qadam XIX asrning oxirida qo'yildi, ya'ni Bismark boshqarayotgan Germaniya hukumati sanoatda ishlovchilar uchun majburiy ijtimoiy sug'urta tizimini kiritdi. Bu tizim kasallik bo'yicha (1883y), ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar ro'y bergan holatlarda (1884y), nogironlik va qarilik (1889y) bo'yicha ta'minotlarni o'z ichiga oldi.

3. Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarida pensiya ta'minotini o'z ichiga olgan ijtimoiy himoyaning uch modeli: liberal, sosial-demokratik; korporativ modelini uchramoqda. AQSh Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarga xos bo'lgan liberal modelning shakllanishi xususiy mulk hukm surgan, bozor munosabatlari yetakchilik qilgan sharoitda liberal mehnat axloki ta'sirida amalga oshgan. Bu model faoliyatining asosiy shartlari quyidagilardir: davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarining kam qo'llanishi; YaIM da davlat sektori ulushining kamligi. Konservativ (kooporativ) model ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xosdir. Bular jamlasiga Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda davlat mavqei ancha kuchli, ijtimoiy tadbirlarga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallariga taxminan teng. Qayta taqsimlashning asosiy kanallari davlat ixtiyorida yoki davlatning nazorati ostida bo'ladi. Ayni paytda davlat fuqarolarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasini sug'urta ximoyasi tizimiga topshirishga harakat qiladi. Sosial-demokratik model – aholini himoya qilishda davlat yetakchi rol o'ynashini nazarda tutadi. Axolining daromadlari darajasini tenglashtirish va aholiniig to'liq ish

bilan ta'minlash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bu model Shimoliy Evropa mamlakatlari – Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya va Shvesariyada o'zining amaliy ifodasini topgan.

4.Xorijiy davlatlarda pensiya tizimining tarkibiy tuzilishi berilgan. Birinchi shakl - belgilangan to'lovlar – pensiya sug'urtasini ta'minlashning keng tarqalgan shakli bo'lib, pensiya tushumlarining hajmi fuqaroning ishlagan ish stajiga va uning mehnat faoliyatidagi alohida hisoblangan ish haqiga bog'liq. Ikkinchi shakl - belgilangan vzoslar – har bir xodimning pensonal xisobraqami mavjudligini bildiradi, unda mablag'lar yig'ilishi va saqlanishi bilan xarakterlanadi. Pensiya yoshiga yetganda, xodim pensiyaga chiqqanda yig'ilgan kapital pensiya daromadiga aylanadi. Bu mablag'lar belgilangan shartlar asosida pensiya sug'urtasini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Uchinchi shakl - pension ballar tizimidir. Mazkur tizimning mazmuni shundan iboratki, xodim individual ish haqiga bog'liq holda, pension ballarni qo'lga kiritadi. To'rtinchi shakl - shartli-jamg'ariladigan hisobraqam - bu tizimda har bir xodimning ajratmalari uning individual schyotida saqlanadi va bu mablag'lar foyda keltiradi. Beshinchi shakl - belgilangan kredit – Shveysariyadagi fuqarolarning professional yo'nalishdagi majburiy ajratmalaridir. Ish beruvchilar va ishlovchilar yoshga bog'liq holda belgilangan normadagi ajratlarni to'lashlari shart.

5.Pensiya tizimini takomillashtirish mehnatga haq to'lash, soliq tizimi, mehnat bozorining holati va moliya bozori bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlakatdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisi tabiiy o'sishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ajratib hal etib bo'lmaydi. Shuningdek, ishlayotganlar sonining qisqarishi, davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoya xarajatlarining ortishi, aholining mehnatga qobiliyatli qismiga tushadigan og'irlikning ko'payishi, bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda pensiya jamg'armasi mablag'lari shakllanishi aksariyat qismining ish beruvchilar tomonidan to'lanishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida

ishlovchilar ish haqi darajasining ortishi va mutanosib ravishda, qarilikni sug'urtalashdagi ulushining ortib borishi joriy pensiya to'lovlarida uzilish holatlarini vujudga keltirmasligi uchun amaldagi pensiya ta'minotini moliyalashtirishning isloh etilishini taqozo etmoqda.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini nazariy jihatdan o'rganilib, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi.

1. Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish, fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlash, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.
2. Pensiya ta'minoti – fuqarolar belgilangan yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo'qotilganda, davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishidir.
3. Majburiy ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, pensiya ta'minotida ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda fuqarolarni ijtimoiy himoyalaydi, haqqoniylikni ta'minlaydi xamda mamlakatda siyosiy birdamlikni yaratadi va saqlab qoladi.
4. “Aholi va ijtimoiy himoya muammolari milliy institutning tahlillariga ko'ra, 2055 yilda aholi sonini 89,9 mln. kishini tashkil qiladi va 65 yoshdan katta keksalar bularning 40,5 foizini qamrab oladi. O'zbekiston jahonda aholisi soni barqaror sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining yosh tarkibida yoshlar katta salmoqqa ega bo'lishiga qaramasdan keksalarning salmog'i barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi tobora yaxshilanib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ushbu holatlar o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta

masalalariga nisbatan jiddiy e'tibor berishni taqozo etadi, chunki pensiya tizimiga oid masalalar alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

5. Respublikamizda aholi turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy himoyalash tizimini amalga oshirish hamda fuqarolarga pensiya tayinlash va to'lash jarayonining umumiy asoslari ishlab chiqilgan. Hozirgi sharoitda pensiya ta'minotini takomillashtirishda hal qilinishi zarur bo'lgan uslubiy va moliyaviy muammolar mavjud.
6. Pensiya ta'minoti sohasi faoliyatini texnik modernizasiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, inson omilining salbiy rolini cheklash Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifalar sanaladi.
7. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishida to'rtinchi bosqich 1991-2005 yillarni o'z ichiga olib, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etdi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlash tashkil etdi. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq davlatlaridan asosiy farqi pensiya hisoblash sxemasidir, ushbu sxema bo'yicha barcha turdagi pensiyalar uch qismdan iborat.

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Fuqarolarni pensiya ta'minotiga imkon yaratuvchi kuchli moliyaviy boshqaruv mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi.
2. Respublikamizda barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini

shakllantiradigan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga joriy etishni takomillashtirish maqsadga muvofiq buladi.

3. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya tizimiga qo'shimcha korporativ, kollektiv va xususiy turlarini shakllantirishni ragbatlantirish kerak.
4. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarorining 11-bandida o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2008. -40b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni. 2007 yil. 25 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni. 2004 yil.26 avgust. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni.2010 yil 26 noyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
7. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish haqida» Qonuni. 2012 yil 5 yanvar. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi , O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qarorlari.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabdagi «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1024-son Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011yil 30 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi
1675-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi
1887-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19
fevralda «O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida
byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash
haqida»gi 30-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8
sentyabrda «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada
takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huqukiy hujjat-larni
tasdiqlash to'g'risida»gi 252-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq Qo'mitasining
2009 yil 5 fevralda Qarori. «Yagona ijtimoiy to'lovning bazaviy
miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab
chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

14. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston».,
1999. -48b.
15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz
farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: «O'zbekiston». 2010. -80 b.
16. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini
yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.:
«O'zbekiston». 2011. - 48 b.
17. Karimov I. A. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga

ko'taradigan yil bo'ladi. T.: "O'zbekiston". 2012. -36 b.

18. Karimov I.A. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir." \ Xalq so'zi. 2012 yil. 8 dekabr.
19. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamlı islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

IV. Asosiy adabiyotlar.

20. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. Монография. -Москва.: Издательство «Экономика».2006. 73с.,
21. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: "Вузовский учебник". 2011. -224 с.
22. Кадомцева С.В. Экономические основы системы социальной защиты. Монография. -Москва.: 1997. –С 248.
23. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
24. Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b.
25. Qosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning yo'nalishlari. Monografiya. – T.: "Moliya". 2012. -118 b.
26. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 212 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar.

27. Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. –T.: “TDIU”. 2007. -187b.
28. Beknozov N.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «TDIU». 2006. - 552 b.
29. Vohobov A.V., Malikov T.S Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -316 b.
30. Vohobov A.V, Qosimova G.A. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -287b.
31. Vohobov A.V.. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. -T.: «Sharq». 2003. 320 b.
32. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.
33. Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. -556 b.
34. Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 660 b.
35. Mexmonov. S.U. Byudjet xisobi. O'kuv ko'llanma. - T.: “Fan va texnologiya”. 2012. - 352 s.
36. Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izoxli lug'ati. -T.: “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti”. 2004. -121b.
37. Нещитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с
38. Поляк Г.Б. Бюджетная система России. Учебник.- М.: «ЮНИТИ-ДАНА». 2011. -703 с.
39. O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Sharq». 2006. -480 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlarva, dissertatsiya avtoreferatlari.

40. Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. – B.8-12.
41. Alimova G. Ijtimoiy sug'urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
42. Аудрюс Б. Причины реформ пенсионной системы современной Литвы. // Социальный вестник, -Москва. 2007. №5. –Б.13-16.
43. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
44. Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo'nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovasion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to'plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.
45. Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. - М.: Российский университет дружбы народов. 2008. -27 б.
46. Мирзаев Ш.А. Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики (на материалах Узбекистана): автореф дис...к.э.н. -Т.: Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. 2006. -26 б.
47. Sodiqova Sh. Keksalarning jamiyatda tutgan o'rni. // Jamiyat va boshqaruv. -Toshkent. 2006. -№1. – B. 52-54.
48. Рустамов Э. Оценка уровня жизни населения. // Иқтисодиёт ва таълим. -Тошкент. 2011. -№2. – Б. 9-12.
49. Рахмонов Д.А. О'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish: i.f.n... dis. avtoref. - Т.: ВМА. 2011. 23 б.
50. Nurumbetov R.K. Mintaqalarda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish masalalari. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning hududiy muvozanatligini ta'minlash masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to'plami. Toshkent. Toshkent

- Moliya instituti. 2012 yil. 17may. –B.366-369.
- 51..Xaydarov M. Davlat byudjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. - №1. – B. 6-9.
52. Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№12. – B. 51-56.
53. World Population Ageing 1950-2050. NY.2002. -239 r.
- 54.O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini oshirish loyihasining 2008-2010 yillarda to'liq hujjati. –T.: 2007. 112 b.
- 55.Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Asosiy omillar. –Toshkent. BMTning O'zbekitndagi vakolatxonasi. -300 b.
56. O'zbekiston Respublikasini 2013 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. \ -T.: Ma'rifat. 2013. 1 may. 35 (8580)-son.
- 57.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar. Statistik to'plam – T.: «O'zbekiston». 2011. – 140 b.

VII. Internet-sayti ma'lumotlari

www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

www.treasury.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi.

www.gov.uz O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.

www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

www.stat.uz O'zbekiston respublikasi Davlat Statistikasi Qo'mitasi.

<http://www.soliq.uz/uz> O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo'mitasi.

